

POSTDA

НА ПОСТУ

AT THE POST



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri



14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

Otlar yelar shiddatdan terlab,
Yangrar xatar to'la taqalar,
Hurkib ko'kka sapchir,patirlab,
Tun uyqusi — qora qarg'alar.

Otlar yelar,
Tillarang xazon
Suvoriylar uzra sochilar,
Elas-elas yangraydi azon —
Tog'lar uzra osmon ochilar.

Otlar yelar, yelar ko'pirib,
Uyg'otganча mudroq yo'llarni,
Go'yo to'gon bandin o'pirib,
Toshqin quvib kelar ularni.

«Zahiriddin, qayga borursan,
Bobong taxtin, yurtini tashlab?!
Qora taqdir seni qul kabi
Qayonlarga ketmoqda boshlab?!

Zahiriddin, bu qanday savdo,
Qora hijrat sari yuz tutmoq?
Yuragingni etar-ku ado,
Tirik turib, Vatandan ketmoq?

Zahiriddin, ortga bir qara,
Ortga boq, ey, toki sen omon,
Axir keyin tushlaringda ham
Bu tuproqni ko'rmog'ing gumon».

Ot pishqirib to'xtar, chavandoz
Uzangiga tirar oyog'in
Va bo'g'ziga to'plar beovoz
Vujudiga to'lgan ingrog'in.

Alam bilan yuragi urar,
Shivirlaydi titroq lablari:
«Hamma yerdan ko'rinib turar
Samarqandning minoralari».

Xurshid DAVRON,
O'zbekiston xalq shoiri.

Sportimiz malikalari

VATAN SHA'NIN ULUG'LAB



Namangan shahar IIB JXX JTSB PPX inspektori, safdor Nozima Vohidova voleybol sport turi bilan 13 yildan buyon muntazam shug'ullanib kelmoqda. Sport uni nafaqat jismonan, balki ma'nan ham tobladi, mas'uliyat, jamoaviylik va yetakchilik fazilatlarini shakllantirdi. U 2017-yildan boshlab O'zbekiston milliy terma jamoasi sardori sifatida mamlakatimiz sharafiga xalqaro musobaqalarda munosib himoya qilib kelmoqda.

Lavhamiz qahramoni faoliyati davomida 4 karra Markaziy Osiyo chempioni, 7 karra O'zbekiston chempioni bo'lib, «Sport ustasi» unvoniga sazovor bo'lgan.

– Erishgan yutuqlarimda murabbiyim Ilhomjon Turdiyevning o'rni beqiyos. Ustozim qo'l ostida 17 ta davlatda o'tkazilgan xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarish baxtiga muyassar bo'ldim. Ayni paytda IIVning «Humo» jamoasiga sardorlik qilyapman, – deydi Nozima.

U xizmatda intizomli, talabchan va mas'uliyatli inspektor, sport maydonida esa jasoratli, jamoani ortidan ergashtira oladigan sardor sifatida tanilgan. Bunday fidoyi va serqirra iste'dod sohiblarining ichki ishlar organlari tizimida ko'p bo'lishi jamiyatimizda sog'lom muhitni shakllantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va jasorat ruhida tarbiyalash hamda tizim nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Xavfsiz hudud

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA JAMOATCHILIK NAZORATI



Ichki ishlar vazirligi ishchi guruhi, sohaviy xizmatlar, mahalla faollari hamda boshqa idoralar vakillari hamkorligida poytaxtimizning Chilonzor tumanida xavfsiz muhitni shakllantirish borasidagi kompleks chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

(Davomi 3-betda.)

Videselektor yig'ilishidan so'ng

MANZILLI ISHLAR SAMARASI

Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish yuzasidan Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mamlakatimiz rahbari davlat va jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan uyushgan jinoyatchilik, narkojinoyatlar, kiberjinoyatchilik hamda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilishi lozimligini ta'kidladilar. Bu borada «poytaxt namunasi» joriy etilishini aytib, yangi ishlash mexanizmlarini Chilonzor tumani misolida batafsil tushuntirib o'tdilar.

Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha Chilonzor tumani tajribasini tatbiq etish yuzasidan Navoiy viloyatida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Navoiy shahrida



mavjud 33 ta mahallaga 17 nafar rahbar va 33 nafar mas'ul xodim nomma-nom biriktirilgan. Shuningdek, viloyat Mahallalar uyushmasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi tezkor shtab tashkil etilgan.

Mahallalar uyushmasida viloyat hokimligi, DXX viloyat boshqarmasi, viloyat prokuraturasi, IIB va boshqa mas'ul tashkilotlar rahbar-

lari yig'ilishdi. Tadbirda mahallalar va jamoat joylarida kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha manzilli ishlash tizimini joriy etish masalalari muhokama qilindi.

Shundan so'ng ular shaharning «Kimyogar» mahallasida bo'lib, oila-turmush munosabatlariga oid jinoyat va huquqbuzarliklar, xotin-qizlar hamda yoshlarning ijtimoiy-maishiy muammolari, ijtimoiy profilaktika, shuningdek, kiberjinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha o'z takliflarini berishdi. Bu boradagi o'rganishlar viloyatning boshqa hududlarida ham davom ettirilmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Jamoat xavfsizligi

QUROLNI O'Z IXTIYORI BILAN TOPSHIRGANLARGA – PUL MUKOFOTI

Mamlakatimizda o'qotar qurol va o'q-dorilarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish hamda ularni ixtiyoriy ravishda topshirgan shaxslarni rag'batlantirish tizimi takomillashtirilmoqda. Shu maqsadda, 2025-yil 25-martda Vazirlar Mahkamasi-ning tegishli qarori qabul qilinib, qonunchilikka muhim o'zgartirishlar kiritildi. Yangi tartibga ko'ra, endilikda nafaqat o'qotar, balki o'qotar bo'lmagan (pnevmatik, signal beruvchi, tig'li sovuq, ulotqirish va o'zini o'zi himoya qilish qurollari) qurol turlarini topshirganlik uchun ham pul mukofoti berilishi belgilandi.

Sohadagi yangiliklar haqida Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Axborot xizmati xodimi Suhrob Shomansurov shunday dedi:

– Olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida ichki ishlar organlariga qurol va o'q-dorilarni o'z ixtiyori bilan topshirayotgan fuqarolar soni ortib bormoqda. Masalan, Andijon shahrida yashovchi fuqaro M.S. qarz evaziga garov sifatida berib ketilgan «Baikal» pnevmatik qurolini ixtiyoriy ravishda topshirdi. Xuddi shunday, poytaxtimizning Chilonzor tumanida yashovchi fuqaro A.K. ham dala hovlisidagi eski binoni buzish chog'ida topib olgan «IJ-18» ov qurolini o'z xohishi bilan ichki ishlar organiga topshirishga qaror qilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil davomida 2 ming nafardan ortiq fuqaro 2012 ta o'qotar qurolni topshirgan bo'lsa, joriy yilda 187 kishi 104 ta ov qurol va ularning qismlarini topshirgan. Topshirilgan ashyolarning qiymati va holatidan kelib chiqib, fuqarolarga pul mukofotlari berilmoqda.

Qonunchilikdagi yangiliklar

KAM AHAMIYATLI
HUQUQBUZARLIKLAR
UCHUN JAZO QANDAY?

Yo'l harakati qoidalarini buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan hollarda ma'muriy jazo qo'llanilishi muddatlarini qayta ko'rib chiqish zaruratidan kelib chiqib, 2026-yil 4-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan, amaldagi kodeksning 23-moddasi 1-qismida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan 6 ta ma'muriy jazo turi keltirilgan. Endilikda mazkur moddaga «ma'muriy ogohlantirish» jazo chorasini ham qo'shildi.

O'z navbatida, kodeksga ma'muriy ogohlantirish to'g'risidagi 24-moddasi kiritildi. Unga ko'ra:

– Ma'muriy ogohlantirish ma'muriy jazo chorasini qo'llashga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunga xilof xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ogohlantirgan holda, unga rasmiy tanbeh berishdan iboratdir. Ma'muriy jazo chorasini yozma (elektron) ravishda qo'llaniladi. Ushbu jazo chorasini ayni bir shaxsga nisbatan bir yil davomida bir martadan ortiq qo'llanilishi mumkin emas.

Yana bir yangilik shundan iboratki, mazkur kodeksning ma'muriy jazo qo'llanish muddatlari haqidagi 36-moddasi 3 ta qismdan iborat edi. Ushbu Qonun bilan mazkur moddaga quyidagi 3-qism qo'shildi. Shu munosabat bilan, amaldagi 3-qism endilikda 4-qism deb o'qiladi:

– Yo'l harakati qoidalarini buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan hollarda ma'muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e'tiboran 1 oydan kechiktirmay, ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganida esa, huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e'tiboran 1 yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, ma'muriy ogohlantirish ko'rinishidagi jazo chorasini qo'shilganligi bois mazkur kodeksning 125, 128¹, 128², 128⁶, 135¹, 138-moddalarida mavjud bo'lgan jarima jazosiga qo'shimcha tarzda ma'muriy ogohlantirish jazosi ham kiritildi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu qonun avtotransport vositalaridan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratilishiga, ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olishga, shuningdek, aholining davlat organlariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Akramjon XO'JAMOV,
Namangan viloyatidagi «Adolat qo'rg'oni»
advokatlar hay'ati advokati.

Xavfsiz hudud

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA JAMOATCHILIK NAZORATI

(Davomi. Boshlanishi
1-betda.)

TARG'IBOT TADBIRLARI DAVOMIDA

Tuman IIOFMB HPB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatchilikning oldini olish bo'linmasi xodimlari hamda IIV Akademiyasi kursantlari ishtirokida Al-Xorazmiy ko'chasidagi savdo majmualari va ovqatlanish maskanlarida targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Muloqotlar davomida eng ko'p uchrayotgan kibertahdidlar, zararli viruslar haqida aholiga batafsil ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida o'tkazilgan uchrashuvlar ham talabalar uchun foydadan xoli bo'lmadi. Talabalarga kiberjinoyatlar haqida ma'lumot berilarkan, APK fayllardan ehtiyot bo'lish, mobil qurilmalarda xavfsiz to'lov tizimlaridan foydalanish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish haqida tushuntirishlar olib borildi. «Cybershield» Telegram bot yordamida har bir foydalanuvchi shubhali APK fayllarni tekshirishi va

o'z qurilmasini zararli dasturlardan himoya qilishi mumkin. Har bir yuklangan shubhali ilova shaxsiy ma'lumotlar uchun ochilgan eshik ekanligi soha mutaxassislari tomonidan tushuntirildi.

«AQLLI» MAHALLA VA RAQAMLI NAZORAT

Tumanda jinoyatchilikni jilovlashda inson omili bilan birga, yuqori texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytmoqda. Xususan, mavjud 55 ta mahallani to'liq kameralashtirish jarayonlari davom etmoqda. Axborot texnologiyalarini joriy etish guruhi katta mutaxassis-muhandisi, kapitan Ma'mur Avazovning ta'kidlashicha, hududda



bahor, Katta Navbahor, Zarqo'rg'on, Nafosat va Diyor nomli mahallalarning kirish-chiqish yo'llariga «Face ID» orqali shaxs-

lanish uchun mo'ljallangan maydonchalarga PTZ (360 darajali nazorat) kameralari o'rnatildi. Bu esa hududni to'liq kuzatib turish imkonini beradi.

MUHOKAMA: JINOYATNING ILDIZI QAYERDA?

Afsuski, ko'rilayotgan choralarga qaramay, ba'zi mahallalarda yo'l qo'yilayotgan e'tiborsizlik oqibati jinoyatlarga zamin yaratmoqda. Tuman hokimi, prokurori va IIOFMB boshlig'i ishtirokida o'tkazilgan jinoyat muhokamasida aniq misollar keltirildi.

Masalan, joriy yilning yanvar oyida «2-Charx Kamolon» mahallasida yuz bergan pichoqbozlik va «3-Charx Kamolon» mahallasidagi tan jarohati yetkazish, «1-Qatortol» mahallasidagi telefon va pul o'g'riligi holatlari ko'pchilikni o'yga toldiradi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ayblanuvchilar ham, jabrlanuvchilar ham ro'yxatdan o'tmasdan mazkur mahallalarda yashab kelgan.

Muhokamada ta'kidlanganidek, endilikda bunday holatlarga chek qo'yish uchun mahalla yettiligi va ichki ishlar organlari zimmasiga kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar yuklatildi. Xususan, har bir xonadon va ijara uyi

qaytadan xatlovdan o'tkaziladi. Mahallada ro'yxatda turmagan biror-bir shaxs nazoratdan chetda qolmaydi. Ijaraga beruvchi uy sohiblariga noqonuniy ijaraning huquqiy oqibatlari va ularning mas'uliyati tushuntirilib, profilaktik suhbatlar keng qamrovda olib boriladi.

Ishsiz yoshlar, muqaddam sudlanganlar va jinoyatga moyilligi bor shaxslar bilan yuzma-yuz ishlash tizimi yanada kuchaytiriladi. Ularning ijtimoiy muammolarini hal etish orqali jinoyat yo'lga kirishining oldi olinadi. Sodir etilgan har bir jinoyat mahalla ahli va faollari ishtirokida keng muhokama qilinadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan «Xavfsiz mahalla» tamoyili faqat qog'ozda emas, balki har bir ko'cha va xonadonda sezilishi kerak. Xavfsiz muhit yaratish, nafaqat soha xodimlarining, balki mahallaning har bir faoli va fuqarosining kundalik ishi bo'lsagina, ijobiy natijalar ko'zga tashlanadi. Tumanda olib borilayotgan bu ezgu ishlar xalqimizning tinchligi va ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



xavfsizlikni ta'minlash mutlaqo yangi bosqichda amalga oshirilmoqda. Chunonchi, Qatortol, Nav-

ni aniqlovchi intellektual kameralari qo'yilgan. Ko'p qavatli uylar oldidagi bolalar va sport bilan shug'ul-



Halollikni shior qilgan xodimlar

QONUNNI SOTIB OLIB
BO'LMAYDI

Joriy yil 4-yanvar kuni taxminan soat 15:00larda G'uzor tumani IIB YHXB YPX inspektori, safdor Jasur Farmonov Ipak yo'li ko'chasida xizmat olib borayotgan edi. Shu payt «Damas» rusumli avtomashinaning harakatlari unda shubha uyg'otdi.



Mashinani to'xtatib, avtoulov haydovchisi bilan muloqotga kirishgan inspektor undan spirtli ichimlik hidi anqiyotganini sezdi. Holat yuzasidan haydovchi R.T.ga nisbatan tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi, avtomashina esa jarima maydonchasidan joy oldi.

Oradan ikki kun o'tdi. Haydovchi R.T.ning joniga bojasi Sh.S. oro kirmoqchi bo'ldi, shekilli, ma'mu-

riy amaliyot inspektori, kichik serjant Sarvar Ulug'murodovning xizmat xonasida paydo bo'ldi. Suhbat davomida Sh.S. bojasiga nisbatan tuzilgan bayonnomani o'zgartirish va avtomashinani jarima maydonidan chiqarib berishi evaziga inspektorga 500 AQSH dollari miqdorida pora taklif etdi. Kichik serjant S.Ulug'murodov pora olish ham, pora berish ham

jinoyat ekanini fuqaroga har-chand tushuntirmasin, u ahddidan qaytmadi. Natijada xodim viloyat IIB rahbariyatiga bildirgi bilan murojaat qildi.

Joriy yil 6-yanvar kuni hamkorlikda tezkor tadbir o'tkazildi. Tadbir davomida fuqaro Sh.S. kichik serjant S.Ulug'murodovga 500 AQSH dollari miqdoridagi pulni pora tariqasida bergan vaqtida qo'lga olindi. Hozir holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 211-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Bu dunyoda sotilmaydigan, sotib olib bo'lmaydigan narsalar ham bor. Pora bersam, yopig'liq qozon yopig'ligicha qoladi, deb o'ylaganlar adashadi. Zotan, halol va o'z kasbiga sodiq xodimlar bor ekan, har kim noqonuniy qilmishiga yarasha javob berishi, jazoga tortilishi tayin.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Tazarru

«ENG KATTA DUSHMANIM – O'ZIM»

«Men 59 yoshdaman. Toshkent shahrida oilam bilan yashardim. Bozorda do'konim bor edi. Xo'jalik mollari bilan savdo qilardim. Tuzukkina mashinam bor edi. Uyimda nevaramning kulgisi yangrab turardi. Topish-tutishim yomon emasdi. Lekin insonni yiqitadigan, yo'ldan adashtiradigan, jinoyat ko'chasiga boshlaydigan narsa doim ham yetishmovchilik, muhtojlik bo'lavermas ekan. Ba'zan u o'zini qudratli his qilib, bosar-tusarini bilmay qolarkan.

Oshna-og'aynilarim orasida gap bilan ish bitiradiganlar bor edi. Qarzdorlardan pul undirish, kimnidir qo'rqitib masalani hal qilish ular uchun oddiy ish edi. O'shalarga havas qilib, safiga qo'shib qoldim. Birinchi marta qo'rquvni boshqaning ko'zida ko'rganimni eslayman. U odamning ovozi titrar, qo'llari qaltirardi. Men bo'lsam o'zimni qattiqqo'l qilib ko'rsatishga urindim. Ich-ichimda esa nimadir sindi. Lekin sir boy bermadim, orqaga qaytmadim.

«Ish»ni bitirgach, va'da qilingan pulni oldim. O'shanda «Bo'ldi, boshqa bunday noma'qulchilik qilmayman», – dedim o'zimga. Lekin odam nafsga bir bor erk bersa, keyin yana bahona topaverar ekan. Shunday qilib, jinoiy guruhning doimiy a'zosiga aylandim.

Pul evaziga yollanib ishladim.

Qo'lga olingan kunim hamon ko'z oldimda. Qo'llarimga kishan taqilganda, mashinam, do'konim, obro'yim, topgan pullarim — bari bir lahzada qiymatini yo'qotdi. Sudya 8 yil-u 1 oy muddatga ozodlikdan mahrum etilganim haqidagi hukmni o'qiganida, gangib qoldim. Ko'z oldim tinib, na o'zimni, na atrofdagilarni ko'ra oldim.

Qamoqxonada vaqt sekin o'tar ekan. Bu yerda odam vijdoni bilan yolg'iz, yuzma-yuz qoladi. U o'zini alday olmaydi. O'tgan umrimni tahlil qilib, o'ylab ko'rsam, eng katta dushmanim boshqalar emas, o'zim ekanman. Chunki meni tovlamachilik bilan shug'ullanishga hech kim majbur qilmadi. Tanlovni o'zim qildim, qaror ham o'zimniki bo'ldi...

O'shanda obdan mulohaza yuritishga hafsala qilmadim, fursat topmadim. Bugun esa o'ylashga, savollarimga javob izlashga vaqtim bisyor. Ko'z oldimda tez-tez shirintoy nabiram Umarbek gavdalanadi. U ko'pincha mashinamning orqa o'rindig'ida uxlab qolardi. Hademay katta bo'ladi, maktabga boradi. Men esa uning hayotidan 8 yilga o'chib ketaman. Bugun eng og'iri — panjara ortida o'tirishim emas. Eng og'iri — uyat. Farzandlarim, qavm-qarindoshlarim, mahalla-ko'y oldida uyatga qoldim. Umarbek ham ulg'aygach, bobosi qayerdaligini, nima uchun qamalganini anglab qoladi. Shularni o'ylab pushaymonman.

Agar birov ushbu satrlarni o'qib, jinoyat ko'chasidan qaytsa, demak mening kechikkan pushaymonim kimgadir foyda bergan bo'ladi. Ozodlikning qad-rini uni yo'qotgan odam yaxshi biladi. Men esa bu haqiqatni juda kech angladim...»

Mahkumning so'zlarini
Mahliyo XOLOVA
oqqa ko'chirdi.

Soha fidoyisi

«Malibu» rusumli avtomashina benzin quyish shoxobchasidan yoqilg'i olish uchun to'xtaganida, «Toshkent-Buxoro» yo'nalishida yo'lovchi sifatida ketayotgan fuqaro haydovchi Sh. Xushnudga tegishli bo'lgan «iPhone 17» rusumli telefon apparati va 4 million 400 ming so'm naqd pullarini o'g'irlab, voqea joyidan yashirinadi.

MAS'ULIYATLI
EKSPERT

Voqea joyini ekspert-mutaxassis sifatida ko'zdan kechirgan katta leytenant Sanjar Salimov ashyoviy dalil tariqasida qo'l-barmoq izlarini oldi. Olingan izlar zudlik bilan viloyat IIB EKMda mavjud shaxsni avtomatlashtirilgan biometrik identifikatsiya qilish tizimi orqali tekshirilganda, ular Farg'ona viloyati Rishton tumanida yashovchi, 2007-yilda tug'ilgan M.S.ning o'ng qo'l nomsiz va jimjiloq barmoqlaridan qoldirilganligi aniqlandi. Shu tarzda jinoyat «issiq izida» fosh etildi.

Bu G'ijduvon tumani IIB EKG katta eksperti, katta leytenant S. Salimovning faoliyatidan bir shingil, xolos. U 2021-yilda IIV Akademiyasini tugatib, dastlab Buxoro shahar IIOFMB EKBda ekspert lavozimida xizmat faoliyatini boshlagan. Soha sir-asrorlarini tajribali ustozlari, podpolkovniklar Zohidjon Haqberdiyev va Baxshillo Atavullayevlardan puxta o'rgandi. 2023-yilning mart oyidan boshlab, egallab turgan lavozimida ishlab kelmoqda. Faoliyati davomida ko'plab jinoyatlarning «issiq izida» fosh etilishiga erishdi. Birgina o'tgan yilni oladigan bo'lsak, 9 ta o'g'rilik holatlari bilan bog'liq jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarni aniqlashda o'z hissasini qo'shdi. Shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlari ekspert-mutaxassis sifatida ishtirok etib, 25 ta daktiloskopik, 13 ta trasologik, 25 ta sovuq qurol tadqiqotlarini o'tkazdi hamda ekspertiza xulosalarini taqdim qildi.

Xullas, katta leytenant S. Salimovning hamkasblari bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlari tufayli sodir etilayotgan jinoyatlar tezkorlik bilan fosh etilib, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi ta'minlanmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



В образовательных учреждениях МВД

Одна цель – одно будущее

Андижанский академический лицей МВД Республики Узбекистан открывает молодым людям дорогу в профессиональное будущее. Общие стремления и тяга к знаниям объединили здесь первокурсников Сергея Соловьёва и Артёма Каримова.

Главная цель друзей – служба в органах внутренних дел. Ребята учатся на «отлично» и планируют стать экспертами в сфере кибербезопасности. В эпоху цифровизации защита информационного пространства и борьба с интернет-мошенничеством стали приоритетными задачами.

– Интернет развивается стремительно, что порождает новые угрозы: от кражи личных данных до финансовых махинаций, – делится Сергей Соловьёв. – Я хочу эффективно бороться с киберпреступностью и приносить пользу обществу.

Артём Каримов добавляет, что лицей предоставляет для этого все возможности:

– В свободное время занимаемся в кружке робототехники, изучая современные технологии и работая над собственными проектами.

Сегодня в лицее обучается свыше 400 учащихся. Высокий уровень подготовки подтверждается фактами: большинство прошлых летних



выпускников успешно поступили в профильные вузы или начали службу в системе ОВД. Успех учеников – это заслуга опытных наставников, таких как Бахориддин Сулаймонов, Барнохон Нейматжонов, Зебо Хасанова, Зухриддин Имомов.

– Сергей и Артём – пример для подражания, – отмечает заместитель директора лицея майор Дилмуроджон Хужамбердиев.

– Они не только отличники, но и активисты: участвуют в олимпиадах по русскому языку, свободно владеют английским и всегда стремятся к саморазвитию.

Такие целеустремленные молодые люди – это будущая опора правопорядка и безопасности нашей страны.

Саминжон ХУСАНЗОДА,
соб. корр.

Андижанская область.

Спорт

МАСТЕРА МАЛОЙ РАКЕТКИ

В целях популяризации здорового образа жизни, развития массового спорта среди личного состава состоялось первенство Ташкентской области по настольному теннису «Кубок начальника ГУВД».

В соревнованиях приняли участие около 30 сотрудников. Они представляли отраслевые подразделения ГУВД, городские и районные ОВД.

В ходе бескомпромиссной борьбы определились победители и призеры. Среди женщин первое место

заняла подполковник Маъмура Абдуллаева (Организационное управление), второе место – майор Зухра Пардаева (УВД города Анграна), третье место – лейтенант Нодира Пулатова (УВД Кибрайского района). Первого места среди мужчин удостоен рядовой Бай-

бит Карабаев (Управление охраны), второго места – старший лейтенант Азаматжон Солиев (Управление охраны), третьего места – рядовой Сардор Саидмуродов (УМиОГ). Им вручены медали, дипломы и ценные подарки.

Подобные состязания способствуют не только укреплению физической подготовки сотрудников, но и формированию командного духа.

Соб. корр.



Грани мастерства

Зона ответственности – порядок на дорогах

Дорожный трафик – это пульс города. В постоянном движении здесь все: от плотных колонн автомобилей до маневренных электросамокатов и пешеходной суеты. В этой динамичной среде крайне важен контроль. Один из тех, кто следит за соблюдением ПДД и отвечает за безопасность участников движения – младший сержант Шохбоз Тошпулатов, инспектор ДПС 1-й мобильной группы 4-го батальона УБДД ГУВД города Ташкента.

Родом Ш. Тошпулатов из Каракульского района Бухарской области. После школы выбрал технический профиль, поступив в колледж по направлению, связанному с эксплуатацией наземного транспорта. Затем обучался в Ташкентском автомобильно-дорожном институте (ныне – Ташкентский государственный транспортный университет). Полученные знания стали фундаментом для будущей деятельности. В 2021 году был принят в органы внутренних дел рядовым сотрудником ППС. В подразделении ДПС



служит с 2024 года. Профессиональные знания и навыки оттачивал под руководством лейтенанта Хуршида Мирзаева, капитана Бекзода Нейматова.

– Наша работа требует максимальной сосредоточенности, самодисциплины и ответственности, – делится младший сержант. – Мы обязаны оперативно реагировать на изменения дорожной обстановки, любые экстренные ситуации. Современные системы связи, городское видеонаблюдение, планшеты, объединенные в единую цифровую экосистему, кратно повышают эффективность контроля.

Следование регламенту – от вежливого приветствия до четкого обоснования законных требований – приоритет для сотрудника. Шохбоз Тошпулатов убежден: именно из таких деталей, как тактичность и открытость инспектора, складывается имидж всей дорожно-патрульной службы. «Кроме того, каждый, оказавшийся в сложной ситуации, может рассчитывать на нашу помощь. При необходимости оперативно свяжемся с коллегами из других профильных служб для совместного решения проблемы», – отмечает он.

Источник сил в череде служебных будней для Шохбоза – тепло родного дома. Семья – надежный тыл. Вместе с супругой Гулхаё они растят дочерей Асилзоду и Ясмину, сына Мухаммадали, стремясь привить им лучшие качества, воспитать достойными членами общества.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.
Фото Абу КЕНЖАЕВА.

98-БАҲОР СОҒИНЧИ

Эрта тонг. Раҳмонжон ота бугун ҳар кунгидан анча тетик, хуш кайфиятда уйғонди. Мактаб ва боғчага отланган чеваралари атрофида чуғурлашиб, у ёқдан-бу ёққа чопаркан, уларга қараб, ич-ичидан севинди. «Бобожон» деб қучоғига талпинганларининг пешонасидан меҳр ила ўпиб қўйди.

Кичкинтойлар мактабу боғчага, катталар ишга кетгач, хонага сукунат чўкди. Отахон дераза ойнасидан ташқарига қаради. Қуёшнинг заррин нурлари йилт-йилт этиб, кўзини қамаштирди. Деразани очган эди, баҳорий илиқ насм димоғига урилди. Ҳовлидаги дов-дарахтларга, сўнг осмонга қаради-ю, «Кўклам яқин», – деди ўзига ўзи шивирлаб.

Фарғона шаҳрининг «Нафосат» маҳалласида яшовчи, истеъфодаги капитан Раҳмонали ота Усмонов 1928 йилда таваллуд топган. Бу йил кўкламда, аниқроғи, 8 март санасида 98 баҳорни қарши олади. Юз билан юзлашаётган бўлса-да, ҳамон тетик ва бардам, хотиралари тиниқ. Болалик ва ўсмирлик йилларини, йўл-патруль соҳасида ишлаган дамларини эслаб, набираларига гапириб беради.

Файзли хонадонга нуронийни йўқлаб келувчилар жуда ҳам кўп. Вилоят ҳамда Фарғона шаҳар ИИБ раҳбарияти, Фахрийлар кенгаши аъзолари, маҳалла еттилиги, профилактика инспекторлари, йўл-патруль хизматининг ёш ходимлари тез-тез

шиб, кўнгли тоғдек кўтарилиб кетади.

Тушга яқин ташқаридан «Раҳмонали ота», деган таниш овоз эшитилди.

– Шу ердаман, кираверинг, – деди нуроний овоз эгасини таниб.

– Ассалому алайкум, яхши ўтирибсизми? – дея Фарғона шаҳар ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги подполковник Таваккалжон Раҳматуллаев ҳамда ҳудуд профилактика инспектори, подполковник Қаҳрамонжон Сотволдиев кириб келишди.

Таваккалжон Раҳматуллаев Раҳмонали ота учун жуда қадрли инсон. Пенсияга чиқишидан олдин Қўриқлаш хизматида бир неча йиллар бирга ишлаган. Ҳозир Фахрийлар кенгашининг



Раҳмонали ота меҳмонлар билан суҳбатлашаркан, беихтиёр болалиги ва йўл-патруль хизматида ишлаган йилларини ёдга олди.

– Иккинчи жаҳон уруши йилларида ўспирин эдим, – дейди у хаёлан ўтмишга саёҳат қилиб. – Ўша давр қийинчиликлари кечагидай ёдимда. Не-не синовли кунларни кўрмадик. Оч-наҳор, юпун юрган дамларимизни эсласам, тушга ўхшайди. Урушдан кейинги тикланиш йилларида меҳнат қилиб, оила боқиш билан бирга, илм олишга ҳам вақт топдим. 1964 йилда йўл-патруль хизматида ишга кирганман. Ўшанда Фарғона вилоятида атиги 3 нафар инспектор ишлаганмиз. Қаерда йўл-транспорт ҳодисаси содир бўлса, мотоциклда етиб борардик. Бир куни Шохимардон тоғларида, бир куни Бешариқ адирларида, яна бир куни Ёзёвон чўлларида хизмат қилишимизга тўғри келган. Йўл-патруль хизмати ходими бўлганимиз учунгина бизга транспорт берилганди, холос. Профилактика инспекторлари, жиноят қидирув ва бошқа хизмат ходимлари вилоят бўйлаб пиёда юришарди. Кейинроқ – 1975–1980 йилларда хизмат автомашиналари берилди бошлади. Ана шундай қийин шароитларда, иссиқни иссиқ, совуқни совуқ, демай хизмат қилдик. Бугун эса, қаранг, шароитлар қандай яхши. Сизларга ҳавасим келади. Қанийди, мўъжиза юз бериб, ёшариб қолсам-у, сизлар билан бирга жавлон уриб ишласам, – дея профилактика инспекторига юзланади.

Самимий суҳбат узоқ чўзилди. Отахон Ватанга муҳаббат, касбга садоқат туйғулари, ҳалоллик тушунчалари ҳақида гапирди. Инспекторга ўзининг қимматли маслаҳатларини бериб, эзгу дуолар қилди.

Раҳмонали отанинг қарийб бир асрлик ҳаёти ибрат макта-

бига ўхшайди. Урушдан кейинги йилларда заводда ишлади. 1964 йилдан бошлаб эса 30 йил йўл-патруль хизматида фаолият кўрсатди. Кейин қўриқлаш хизматида ўтди. Шу ерда бир неча йил ишлаб, эҳтиром билан пенсияга чиқди. Шундан сўнг ҳам, эркин ёлланган ходим сифатида Фарғона шаҳар ИИБ қўриқлаш бўлимида фаолиятини давом эттирди. Кейинчалик икки нафар ўғли ҳам эркин ёлланган ходим сифатида қўриқлаш хизматида ишлашди.

Дарвоқе, Раҳмонали отанинг укаси, истеъфодаги майор Содикжон Усмонов ҳам кўп йиллар ички ишлар органларида ишлаб, пенсияга чиққан. Ҳозир 84 ёшда.

Нуроний отахон турмуш ўртоғи Мухтасархон Усмоновани доим яхши хотиралар билан эслайди. Улар ҳамжиҳатликда 5 нафар фарзандни комил инсон қилиб вояга етказишди. Бугун неvara ва чеваралар 50 нафардан ошиб кетган. Ҳаммаси бир уйга тўпланса, тўй бўлиб кетади.

– Отамнинг ҳаёти биз учун ибрат мактаби, – дейди ўғли Омонжон Усмонов. – Тўнғич фарзанд бўлгани учун отасидан эрта айрилгач, 5 нафар укалари ҳам унинг қарамоғида қолган экан. Ёш боши билан ишлаб, укаларини ҳам ўқитган, ҳам уйли-жойли қилган. Шу сабабли амакиларим ота ўрнида кўришади.

Баҳор фаслида туғилган, баҳорни жуда яхши кўрадиган нуронийнинг дили ва тилидан шукрона аримайди.

98 баҳор. Бу шунчаки оддий рақам эмас. Бу оғир кунларга гувоҳ йиллар, машаққатли кунлардаги сабр-қаноат, шарафли хизмат, фидокорлик ва шукроналик ёшидир.

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.



бу ҳовлига келиб, отахоннинг ҳолидан хабар олиб, суҳбатидан баҳраманд бўлишади.

Раҳмонали ота жуда меҳмондўст, йўқлаб келувчиларга жуда ўрганиб қолган. Улар билан гаплашиб, ёшлигини эслайди, одамнинг тафтини одам олади, деганларидек, биров эшик қоқиб келса, кўзлари ёри-

раиси сифатида тез-тез йўқлаб келади. Узоқ-узоқ суҳбатлар қўришади. Яқинда Ватан ҳимоячилари куни байрами арафасида ҳам вилоят ИИБ бошлиғи ўринбосари, Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати бошлиғи, полковник Дилмурод Хўжақулов билан бирга келишганди.

Долзарб мавзу

ДУНЁ ҲАМЖАМИЯТИГА ЭСЛАТМА

2022 йилнинг 20 декабрида БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 12 феврални «Терроризмга олиб келиши мумкин бўлган зўравон экстремизмнинг олдини олиш бўйича халқаро кун» деб эълон қилиш бўйича резолюция қабул қилинган. Хўш, нега айнан ушбу сана танланган? Бойси, 2016 йилнинг 12 февралда БМТ Бош Ассамблеяси «Зўравон экстремизмнинг олдини олиш бўйича Ҳаракатлар режаси»ни қабул қилган эди.

Экстремизм ва терроризм тушунчаларига таъриф деярли барча давлатларнинг жиноят қонунчилигида ўз аксини топган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси ҳамда экстремизм ва терроризмга қарши курашиш борасидаги қонунларда уни учратиш мумкин. Бироқ миллий қонунчиликда «зўравон экстремизм» атамасига алоҳида таъриф берилмаган. Шу билан бирга, халқаро ҳуқуқда «терроризм» тушунчасида бўлгани каби, «зўравон экстремизм» атамаси бўйича умумий эътироф этилган ягона таъриф мавжуд эмас. Баъзан ушбу икки атама бир-бирининг ўрнида чалкаш тарзда ишлатилиш ҳолатлари ҳам учраб туради.

Умуман олганда, БМТ ҳужжатлари, жумладан «Зўравон экстремизмнинг олдини олиш бўйича Ҳаракатлар режаси» ва Бош котиб позициясига кўра, зўравон экстремизм терроризмга нисбатан кенгроқ тушунча бўлиб, террорчилик даражасига етмаган, бироқ мафкуравий зўравонликни оқловчи ва тарғиб қилувчи шаклларни

ҳам қамраб олади. Айнан шу жиҳати билан террорчиликнинг олдини олишга қаратилган ёндашувларда муҳим ўрин тутати.

Амалиётда зўравон экстремизмга қарши курашиш асосан шахслар ёки гуруҳларни зўравонликка мойилликдан қайтариш, шунингдек, сиёсий мақсадларда нодавлат субъектлар томонидан амалга ошириладиган мафкуравий асосланган терроризмга қўшилиш, уни қўллаб-қувватлаш ёки унда иштирок этишнинг олдини олишга қаратилган мажбурий бўлмаган воситалар мажмуини англатади.

Ушбу соҳада универсал таърифларнинг йўқлиги стратегиялар ва сиёсатларда изчилликни таъминлашда муаммолар келтириб чиқармоқда. БМТнинг терроризмга қарши кураш жараёнида инсон ҳуқуқлари бўйича махсус маърузачиси таъкидлага-

нидек, семантик ва концептуал ноаниқлик бундай чора-тадбирларнинг инсон ҳуқуқларига таъсири ҳамда терроризм хавфини камайтиришдаги самарадорлигини баҳолашни мураккаблаштиради. Зўравон экстремизмнинг олдини олиш ёндашуви БМТ томонидан устувор йўналиш сифатида илгари сурилиб, таълим, бағрикенглик, ҳаётга ҳурмат, зўравонликсиз яшаш, мулоқот ва ҳамкорликни

ларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегиясида ушбу таҳдидларга қарши курашишда комплекс ва мувозанатли ёндашув белгиланган.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлаш, виждон эркинлиги, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни мустаҳкамлаш борасида олиб борилаётган изчил ислохотлар зўравон экстремизмнинг олдини олишда муҳим профилактик омил бўлиб хизмат қилмоқда. Бу эса БМТ томонидан илгари сурилган зўравон экстремизмнинг олдини олиш ёндашуви, яъни радикаллашувнинг ижтимоий, иқтисодий ва мафкуравий сабабларини бартараф этишга қаратилган концепцияга мос келади.

Мазкур ёндашувнинг самарадорлиги Ўзбекистоннинг халқаро рейтинглардаги ўрни орқали ҳам тасдиқланяпти. Жумладан, Global Terrorism Index маълумотларига кўра, Ўзбекистон сўнгги йилларда

терроризм хавфи энг паст бўлган давлатлар қаторидан жой олиб келмоқда. Бу ҳолат мамлакатимизда зўравон экстремизм ва терроризмга қарши курашиш борасида изчил, профилактик ишлар ва инсон ҳуқуқларига асосланган сиёсат олиб борилаётганидан далолат беради.

Хулоса қилиб айтганда, Терроризмга олиб келиши мумкин бўлган зўравон экстремизмнинг олдини олиш бўйича халқаро кун бутун дунё ҳамжамиятига зўравонлик ва мurosасизликка қарши биргаликда ҳаракат қилиш зарурлигини эслатади. Ушбу сана зўравон экстремизмни фақат хавфсизлик муаммоси сифатида эмас, балки таълим, бағрикенглик, инсон ҳуқуқлари ва ижтимоий адолат орқали бартараф этилиши мумкин бўлган мураккаб ижтимоий ҳодиса сифатида англаш муҳимлигини таъкидлайди. Айнан ана шундай ёндашув тинчликни асраш ва келажак авлодлар учун хавфсиз, барқарор жамиятни барпо этишнинг энг тўғри йўли ҳисобланади.

Шодия ИСМОИЛОВА,
Инсон ҳуқуқлари
бўйича Ўзбекистон
Республикаси
Миллий маркази етакчи
мутахассиси.



ривожлантириш орқали зўравон экстремизмнинг омилларини бартараф этишга қаратилган кенг қамровли профилактик ёндашув зарурлигини назарда тутати.


Ўзбекистонда ушбу ҳодисанинг олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади.

Хусусан, 2021–2026 йил-



Кимдан халқига ҳар кун
қандайдир наф тегса, шу энг
яхши одамдир.

Абдурахмон Жомий



Жазолашдан кўра кечир-
маклик мардликдир.
Ожиз одам кечиролмайди.
Авф этиш кучлилар
фазилатидир.

Маҳатма Ганди



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

VATAN SOG'INCHIDA O'RTANGAN YURAK

(14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun)

Zahiriddin Muhammad Bobur – o'zbek xalqi tarixi, adabiyoti va davlatchilik tafakkurida alohida o'rin tutadigan buyuk shaxsdir. Uning nomi ko'p asrlar davomida podshoh, sarkarda, sulola asoschisi sifatida tilga olib kelinadi. Biroq Bobur shaxsiyatining eng chuqur, eng ta'sirchan va eng insoniy qirrasini uning Vatanga bo'lgan muhabbati, umrbod hamroh bo'lgan sog'inchi va qalbiy iztiroblarida namoyon bo'ladi. Ana shu ichki iztirob, ruhiy sinovlar uning shaxs sifatida shakllanishiga, ijodiy va siyosiy qarorlariga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Bobur taqdiri shunday kechdiki, u hayotining katta qismini tug'ilib-o'sgan yurtidan ayro holda o'tkazdi. Bu ayriliq oddiy joy almashish emas, balki butun bir ma'naviy olamdan uzilish edi. Ammo bu ayriliq uning qalbidagi Vatan tuyg'usini so'ndirmadi, aksincha, yanada kuchaytirdi, uning ijodi, dunyoqarashi va tarixda tutgan o'rnini belgilab berdi. Bobur hayotidagi har bir g'alaba, har bir mag'lubiyat Vatan sog'inchi bilan uyg'un holda kechdi.

Bobur uchun Vatan oddiy geografik makon yoki siyosiy hudud emas edi. Uning tasavvurida Vatan bolalik xotiralari, ona tilining jozibasi, Andijon saharlarining sokinligi, Farg'ona vodiysining serhosil zamini, Samarqandning azim tarixi va ma'naviy ulug'vorligi bilan uyg'un bir butun olam edi. Bu tuyg'ular unda tasodifan paydo bo'lmagan, balki bolalikdan qalbiga singib borgan muqaddas his edi. Shu sababli, u qayerda bo'lmasin – Kobulda, Hindistonda – qalban doim Movarounnahr tomon intilib yashadi, uning ruhi ana shu yurt bilan bog'liq bo'lib qolaverdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligidanoq siyosiy beqarorlik, sulolaviy kurashlar, taxt uchun olib borilgan murosasiz raqobatlar muhitida kamol topdi. Farg'ona taxti uchun kurash, Samarqandni qo'lga kiritish va uni qayta-qayta boy berish kabi voqealar Bobur hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, Samarqanddan ajralish uning qalbidagi og'ir va o'chmas iz qoldirdi. Bu ayriligni u faqat siyosiy mag'lubiyat sifatida emas, balki shaxsiy fojia, ma'naviy suyanchdan ajralish, Vatandan uzilish sifatida qabul qildi.

«Boburnoma» asari ana shu qalbiy holatlarning eng ishonchli yozma guvohidir. Bu asarda Bobur o'z hayotini nafaqat tarixchi,

balki inson sifatida ham bayon qiladi. Adabiyotshunos olim Vohid Abdullayev «Boburnoma» haqida shunday yozadi: «Boburnoma – tarixiy voqealar silsilasiga emas, balki muallifning qalb kundaligi, uning ichki dunyosi va ruhiy iztiroblarining oynasi hisoblanadi». Darhaqiqat, asarda Bobur o'z yutuq va mag'lubiyatlarini yashirmay, xolisona, samimiy tarzda yoritadi.

«Boburnoma»da Samarqand haqidagi sahifalar ayniqsa dardli, iztirobli ruhda yozilgan. U yerda shahar faqat siyosiy markaz sifatida emas, balki Bobur uchun orzu, umid va ma'naviy kamolot timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bobur shunday deb yozadi: «Samarqanddek shahardan ajramoq bizga juda og'ir tuyuldi. Ko'nglimizda o'chmas alam paydo bo'ldi». Bu satrlarda uning Vatanga bo'lgan munosabati, yurtni qanday chuqur his qilgani, ayriliqning ruhiy og'irligi yaqqol seziladi.

Bobur Farg'ona vodiysi, Andijon tabiati haqida ham katta mehr va sog'inchi bilan yozadi. U bu manzaralarni tasvirlarkan, ularni nafaqat ko'z bilan ko'rilgan tabiat, balki qalbdagi saqlangan muqaddas xotira sifatida ifodalaydi. Bu tasvirlarda yurtning hidi, rangi, ruhi bor. Shu jihatdan «Boburnoma» faqat tarixiy manba emas, balki Vatan tuyg'usi bilan sug'orilgan ma'naviy meros sifatida ham yuksak qadrlanadi.

Bobur Vatandan uzoqlashgan sari sog'inchi uning she'riyatida yanada kuchli aks eta boshladi. Uning ruboiy va g'azallarida g'ariblik dardi, yurtni qo'rmsash, o'z makoniga yeta olmaslik alami asosiy mavzuga aylanadi. Bu she'rlar shaxsiy iztirobdan tashqari, umuminsoniy holatni ifoda etadi. Adabiyotshunos N. Karimov bu haqda quyidagicha yozadi: «Bobur she'riyatidagi sog'inchi shaxsiy his darajasidan chiqib, umuminsoniy

dard darajasiga ko'tarilgan». Darhaqiqat, uning misralarida o'z yurtidan ayrilgan har bir inson his qiladigan dard mujassam.

Bobur Kobul va keyinchalik Hindistonga borgan ham, Vatan sog'inchi uni tark etmadi. Aksincha, yangi zaminda u yanada kuchaydi. U Hindiston tabiatini tasvirlarkan, ko'p hollarda uni Farg'ona bilan qiyoslaydi. «Boburnoma»da u shunday yozadi: «Hindiston yurti keng va ne'matli bo'lsa-da, bizga Farg'onadek yoqimli tuyulmadi». Bu qiyos ortida tashqi farovonlikka qaramay, ichki bo'shliq, qalbiy sog'inchi mujassam ekani seziladi.

Bobur Hindistonda ulkan davlat barpo etarkan, u yerda ham Movarounnahr an'alarini saqlashga intilgan. Bog'lar barpo ettirishi, me'moriy uslub, adabiy muhit yaratishi, bularning barchasi uning Vatanga bo'lgan sadoqati bilan bog'liq. U o'z atrofida go'yo ona yurtining ma'naviy muhitini qayta tiklashga harakat qilgan.

Akademik Aziz Qayumov Bobur shaxsiyati haqida shunday fikr bildiradi: «Bobur hayotidagi eng kuchli ichki quvvat – bu uning Vatanga bo'lgan muhabbati va undan ajralib qolganlik dardidir». Bu fikr Bobur taqdirini, uning ichki dunyosi va buyukligini chuqur anglash uchun muhim kalit hisoblanadi.

Mirza Haydar Do'g'lat o'zining «Tarixi Rashidiy» asarida Boburni yuksak baholab, uning insonparvarligi, halolligi va yurtiga bo'lgan mehrini alohida ta'kidlaydi. U Boburni «yuragida Vatan dardini olib yurgan podshoh» sifatida tasvirlaydi. Bu ta'rif Bobur shaxsiyatining eng aniq va xolis ifodalaridan biridir.

Bobur Vatan haqida yozarkan, uni ideallashtirib ko'rsatmaydi. U muammolarni, ichki nizolarni, xiyonatlarni ham




ochiq bayon qiladi. Biroq bu tanqid ortida ham chuqur muhabbat, alam va mas'uliyat yotadi. Ana shu xolislik, rostgo'ylik uning so'zlarini ishonchli, ta'sirchan qiladi.

Bobur uchun Vatan o'tmish xotirasi emas, balki butun umri davomida suyangan ma'naviy tayanch edi. U o'z yurtidan uzoqda turib ham, Vatan uchun yashadi, uning nomini ulug'ladi. Shu boisdan ham Bobur qoldirgan meros faqat tarixiy yodgorlik emas, balki Vatanni sevish, unga sadoqatli bo'lish haqidagi buyuk saboqdir.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Boburning butun hayoti va ijodi Vatan sog'inchi bilan

sug'orilgan. Buyuk bobokalonimiz qalbidagi bu sog'inchi uni zaif qilmadi, aksincha, ma'nan tobladi, buyuklikka yetakladi. «Vatan sog'inchida o'rtangan yurak» – bu faqat Bobur qalbining ifodasi emas, balki o'z yurtini sevgan, undan ayrilgan har bir inson qalbidagi yashaydigan muqaddas tuyg'udir.

**Munosib
ISHANXO'JAYEVA,**
Andijon davlat chet
tillar instituti tayanch
doktoranti.



Qoraqalpog
tilidagi matn.



Rus tilidagi
matn.

► A dedicated professional



His life is a beautiful example

Lieutenant colonel Husan Donishev has been serving selflessly in the internal affairs organs since 1997, specifically in the field of ensuring transport security. Throughout his career, he has demonstrated high skill in suppressing drug trafficking on trains and exposing dangerous criminals who were wanted for committing brutal murders in Russia.

As an experienced officer, he has mentored many students, making a significant contribution to their professional growth. Beyond his service, Husan Donishev is an exemplary head of a family – his two children have found their place in society, and he is a beloved grandfather to three grandchildren. His life is a beautiful example of dedication to one's profession and family happiness.

► A new approach

A resolute and disciplined officer

Private Madadbek Joraqulov has been actively maintaining public order and combating offenses in the crowded areas of the Karmanna district. He demonstrates high skill not only in identifying wanted individuals but also in solving crimes in their immediate aftermath. Specifically, through video surveillance and operational search efforts, he quickly apprehended a suspect who had stolen money from a female entrepreneur at a farmers' market and attempted to escape by changing both his appearance and route. Joraqulov's dedication to his duties and his thorough knowledge of the territory serve as key factors in ensuring the peace and tranquility of the district.



► Sports

The goal – the World Championship

This report highlights the achievements of senior sergeant Anzor Kuziev, an international-class master of sports and an officer of the Kashkadarya regional internal affairs Department, in both his athletic and professional careers. Born in the Karshi district, the hero of our story entered the world of sports through wrestling and judo, later transitioning to the internal affairs system following his military service. Although he has won numerous international competitions in sambo, hand-to-hand combat, and national wrestling (kurash), he recently achieved a historic milestone in the sport of sumo. Specifically, at the national championship held in Chirchiq, he secured the absolute victory in the 100 kg weight category, becoming the first champion in sumo among both internal affairs officers and athletes of the region. Through this triumphant achievement, Anzor Kuziev earned a spot in the 27th World Championship, which will be held this October in Azerbaijan.

► Creative work

«Mahbub ul-qulub» in english


The work «Mahbub ul-qulub», which embodies profound philosophical views on human morality, the responsibility of speech, language culture, and social life, is one of the most significant examples of Navoi's creativity. The wise thoughts put forward in this work remain extremely relevant for the upbringing of today's youth.

In the era of globalization, promoting our national literature in world languages is considered a vital task. To this end, selected aphorisms from Alisher Navoi's «Mahbub ul-qulub» were translated into English by an English language teacher operating at the specialized boarding school of the Ministry of internal affairs (MIA). During the translation process, particular attention was paid

to preserving the essence, moral ideas, and artistic spirit of the work as fully as possible.

These English translations are currently being practically applied in English language classes at the MIA specialized boarding school. During the lessons, students are not only increasing their English vocabulary through these proverbs but are also becoming closely acquainted with the ethical and philosophical views of our great ancestor, Alisher Navoi. This serves to conduct foreign language teaching in harmony with spiritual and moral education.

Mohinur BOBOKULOVA,
English language teacher at the
specialized boarding school of the
Ministry of internal affairs.



► Sariosiyo experience

Protection of women and social stability




An effective mechanism for working with women based on the «Bukhara experience» has been established in the Sariosiyo district, led by captain Gulnigor Elmurodova, a senior inspector of the district Department of internal affairs. The primary focus of this activity is targeted engagement with a special contingent consisting of 13 categories. As a practical result, in the past year alone, 167 out of 211 families on the verge of divorce were reconciled, and 227 women who suffered from violence were issued protection orders to ensure their safety.

To eliminate economic difficulties, which are a major factor in family conflicts, the social condition of 5,562 women registered in the «Women's notebook» was improved. Specifically, 4,194 women were provided with employment, 37 women interested in entrepreneurship were allocated 668 million soums in concessional loans, and another 888 women were trained in vocational skills. Furthermore, seminars for future brides are held every Friday for preventive purposes. The ultimate conclusion is that by providing women with vocational skills and social support, not only is crime being prevented, but the families – the spiritual foundation of society – are being strengthened.

Xizmatlarda

MUHIM HUJJATGA E'TIBOR ZARUR

Buxoro shahar IIOFMB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi xodimlari tomonidan o'tgan yil davomida 16912 nafar fuqaro doimiy yashash manzili bo'yicha, 6370 nafari vaqtincha yashash joyi bo'yicha hisobga olingan. Shuningdek, 13432 nafar fuqaroga xorijga chiqish pasporti rasmiylashtirib berildi, 41410 nafardan ortiq fuqaroga esa ID-kartalar topshirildi.



Bundan tashqari, 9040 nafar chet el fuqarosi vaqtinchalik ro'yxatga qo'yilib, ulardan davlat bojlari undirildi. Soha va killari tomonidan olib borilgan profilaktik hamda tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida 3 nafar qidiruvda bo'lgan shaxsning yashiringan manzillari aniqlanib, ushlendi va tergov hibxonasiga joylashtirildi.

E'tiborsizlik, belgilangan qonun talablariga rioya etmaslik insonni turli qiyinchiliklarga, noqulayliklarga ro'para qiladi. Xususan, 2025-yilda pasport tizimi qoidalarini buzgan 846 nafar fuqaroga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJtKning tegishli moddalariga asosan ma'muriy bayonnomalar

rasmiylashtirildi. Shuningdek, 6 nafar xorijlik fuqaro O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini takroran buzganligi sababli kirish huquqini 3 yil muddatga cheklangan holda, mamlakatimizdan ma'muriy tarzda chiqarib yuborildi. Ushbu raqamlardan ko'rinib turibdiki, har birimiz fuqarolikni tasdiqlovchi muhim hujjatga e'tiborli bo'lishimiz, qonun talablariga qat'iy rioya etishimiz lozim. Aks holda, e'tiborsizligimiz javobgarlikka sabab bo'ladi.

Mansur HAMROYEV,
mayor.

Buxoro viloyati.

Mulohaza uchun mavzu

«OYI, YANA BITTA O'YNAY!..»

Sarlavhaga chiqarilgan bu iborani bugungi kunda issiq nonlar reklamasidan ko'ra ko'p eshitish mumkin. Daha do'konlari, bozor atrofi va alohida hovlilarga yondosh hududlarni «bolalarni jalb qilish»ning yangi to'liqini qamrab oldi. Yumshoq o'yinchoqlar bilan to'ldirilgan va changalsimon ilgak o'rnatilgan shaffof shishali apparatlar jamoat joylarida o'ziga xos elementga aylandi.



«...HAR SAFAR KO'Z YOSH»

Mazkur o'yin avtomatlari mavzusi ijtimoiy tarmoqlarda qizg'in muhokamaga sabab bo'lmoqda. «Qizim har kuni bu o'yinga 20–30 ming so'm sarflaydi. O'yinchoqlar ilib olinadi, lekin yutuq tashlanadigan bo'lmaga yetmay, «panja» ochilib ketadi. Bola yig'laydi, uyga yetguncha esa yo'lda yana uchta shunday avtomat chiqadi...», – deydi poytaxtda istiqomat qiluvchi Yekaterina.

O'zim ham xuddi shunday manzaraga guvoh bo'ldim: kundalik xarajatini o'yinda boy bergan bola yo'lovchilardan yolvorib pul so'ray boshladi.

Zamonaviy bu apparatlar shunchaki mexanika emas, balki sovuq hisob-kitob vositasidir. Egasi qurilmani shunday sozlaganki, manipulyator o'yinchoqni faqat bir marta, masalan, 5, 10 yoki 15 marta urinishdan so'ng yetarli kuch bilan siqib turadi. Qolgan payt u shunchaki ilib olgandek bo'lib, «yutuqqa erishishga oz qolgandi» degan hisni beradi.

Bolaning tanqidiy fikrlashi endi shakllanayotgan bir paytda, yengil yutuq xom xayoli bir zumda o'yinga



moyillik uyg'otadi, o'yinchoqlarning dasturlangan tushishini esa miya oxirgi soniyada yutuq yaqinligi sifatida xato qabul qiladi. O'z vaqtida to'xtab, xavflarni baholay olmaslik bolalarni yanglish xatti-harakatlarga boshlaydi. Bu tez orada «zavqqa» qaramlikka aylanib, ularni qayta-qayta urinishga chorlaydi.

MANIPULYATORNI FOSH QILISH

Rasmiy idoralar ushbu qurilmalarni «nima qilish» haqida bosh qotirib, bir qarorga kelishga urinar

ekan, oilaning katta a'zolari bola va ushbu tuzoq o'rtasida yagona to'siq bo'lib qolmoqda. Bunday muammo-ga duch kelgan ota-onalarning tajribasi manipulyator «sehri»ni qanday qilib kesish mumkinligi o'ylantirmoqda.

Bola oyna ortida turfa xil o'yinchoqlarni, ya'ni nishonni ko'radi. Maqsad unga mexanizmni

ko'rsatish. Eng yaxshisi, suhbatni taqiq emas («bu yaxshi emas»), balki mantiq va «fokuschi sirlari» asosida qurish kerak. Unga «zaif panja» tamoyilini, ya'ni avtomat chaqqonlik sinovi emasligini tushuntirib: «Ichida kichik kompyuter bor. Qurilma egasi uning temir panjasini o'ntadan faqat bittasida mahkam qisadigan qilib sozlab qo'ygan (misol uchun). Qolgan to'qqizta urinish o'yinchoq tushib ketishi uchun atayin «bo'shroq tutish»ga dasturlashtirilgan», – deb ayting.

«Yutuqqa erishishga juda oz qolgandi» sirini oching. O'yinchoq ko'pincha oxirgi soniyada mo'ljaldan chetga tushib ketishini ayting. «Avtomat yana ko'proq pul sarflashing uchun seni yutuqqa yaqin qolgan qilib ko'rsatadi. Bu miya uchun tuzoqdir», – deng. Bu kuchlilar g'olib keladigan o'yin emas, balki pul yig'ish qurilmasi ekanini, u «sovg'alar hadya etish uchun emas, yutuqni bermaslik uchun yaratilgan»ni tushuntiring.

Avtomat yonida pul tashlamay 5 daqiqa turing. Boshqalar qanday o'ynayotganini kuzating (kuzatuvchi tajribasi). Bola ketma-ket uchta odam tutgan o'yinchoq «zaif» panjadan tushib ketganini ko'rsa, uning o'zi tizimni tushunib oladi. U bilan «Kel, temir qutiga boqmay, yaxshisi do'konga kiraylik... Shunday qilsak, yutqazmagan bo'lamiz, aksincha, senga kerak narsani sotib olamiz», – deb kelishib oling. Maqsad – «sehrlovchi quti»ni bolaning ko'z o'ngida «ochko'z qurilma»ga aylantirish.

Radik TUMPAROV,
pedagogika fanlari nomzodi.



NUFUZI HAM, MAS'ULIYATI HAM O'ZGACHA

JINOYATCHILIK JILOVLANMOQDA

Nukus shahri Qoraqalpog'istonning poytaxti sifatida o'z nufuziga ega. Uning hududida tinchlik-osoyishtalikni, aholi xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olishning mas'uliyati ham o'zgacha. Shahar Ichki ishlar boshqarmasi xodimlari ushbu mas'uliyatli vazifaning uddasidan chiqmoqdalar.

– Bugungi kunda shahar IIBga qarashli 4 ta Ichki ishlar bo'limi faoliyat olib boradi. Xodimlarimizning xizmatga vijdonan yondashishi tufayli 2025-yil yakuniga ko'ra umumiy jinoyatchilik 42,5 foizga qisqardi. Xususan, jinoyat qidiruv yo'nalishida 52,4 foizga, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar esa 10 foizga kamayishiga erishildi. Ushbu davr mobaynida qidiruvda bo'lgan 115 nafar shaxs qo'lga olindi, bosqinchilik jinoyati sodir etilishiga umuman yo'l qo'yilmadi, – deydi Nukus shahar IIB boshlig'i, polkovnik Muxametali Xojamuratov.

Albatta, bunday ijobiy natijalarga erishishda joylarda profilaktik tadbirlarning to'g'ri yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, joylardagi mahalla faollari hamda hamkor tashkilotlar vakillari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan ishlar ham o'z samarasini berayotir.

EKSPERTIZA XULOSASIGA KO'RA

Nukus shahar IIBga murojaat etgan fuqaro o'zining «Damas» rusumli avtomashinasidan umumiy bahosi 45 million so'mlik videokamera va fotoapparat o'g'irlab ketilganini ma'lum qildi. Ushbu murojaatga asosan voqea joyiga yetib borgan tergov-tezkor guruhi xodimlari holatni o'rgana boshladi. Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Asilbek Utarbayev avtomashinani ko'zdan kechirish davomida uning yukxonasi tutqichidan barmoq izlari namunasini topdi.

Ushbu barmoq izlari «Sonda» ADTT bazasidan tekshirib ko'rilganida, 2010-yilda tug'ilgan A.K. ismli o'smirlar tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi. Ushbu shaxs qo'lga olinganida, mazkur jinoyatni sherigi T.Y bilan birgalikda amalga oshirganini hamda o'g'irlangan buyumni arzon-garovga sotib yuborganini aytdi. Tez orada buyum topilib egasiga qaytarildi va holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atildi.



Ma'lumki, sodir etilgan jinoyatni fosh qilish va unga jazo muqarrarligini ta'minlashda ashyoviy dalillar muhim ahamiyatga egadir. Ularni izlab topish va ekspertiza xulosalarini tayyorlash mutaxassislardan katta mahorat talab etadi. Bugungi kunda EKG xodimlari ekspertizalar o'tkazishdan tashqari, O'zbekiston Respublikasi IIV Qoraqalpog' akademiyasi hamda Temurbeklar maktabi o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham o'z hissalarini qo'shib kelmoqda.

HUJJATING SOZ BO'LSA

Nukus shahri markaz bo'lgani bois turli transportlar yo'nalishida asosiy tugun hisoblanadi. Shu sababdan shaharga kelib-ketuvchilar, xorijiy fuqarolar ancha ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning ro'yxatini shakllantirib borish xavfsizlik nuqtayi nazaridan muhim omillar sirasiga kiradi.

Shuningdek, hududda doimiy hisobda turib yashab kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan shahar IIB M va FRB xodimlari hududiy profilaktika inspektorlari bilan birgalikda xabardor bo'lib turishadi. Shahardagi mehmonxonalar, uy mehmonxonalar, sanatoriylar, xostellar «E-mehmon» elektron tizimga ulangan. Bu esa kelgan mehmonlarni ro'y-xatga olishni osonlashtiradi.

Bundan tashqari, pasportini yo'qotib, «Vatanga qaytish guvohnomasi» bilan qaytib kelgan fuqarolar bilan tegishli tartibda profilaktik suhbatlar o'tkazilyapti.



PROFILAKTIKA SAMARASI

Ma'lumki, ichki ishlar organlarining profilaktika xizmati xodimlari aholi bilan bevosita ishlaydi. Shu bois hududlarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish ko'p jihatdan aynan shu soha vakillarining o'z vazifasini nechog'li vijdonan bajarishiga bog'liq. 2025-yil yakuniga ko'ra, Nukus shahri hududidagi makon fuqarolar yig'inlaridan 24 tasi yashil, 42 tasi sariq va 5 tasi qizil toifaga kiritildi. Hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan 14 mingdan ortiq huquqbuzarlik holati yuzasidan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, qonuniy choralar ko'rilgan.

– Ma'lumki, mamlakatimizda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta'minlash dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Buni joriy yilning mamlakatimizda «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili» deb atalganida ham ko'rish mumkin. Hozirda bu borada mahalla yettiligining faoliyati yanada kuchaytirilyapti, – deydi IIB JXX HPB boshlig'i, mayor Farid Aleuov.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-yanvardagi «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida shahardagi ko'p qavatli uylarga 60 dona PTZ kamerasi, aholi gavjum joylar va ko'chalarga 132 ta videokuzatuv kamerasi, mahallaga asosiy kirish-chiqish joylariga yuzni va avtoraqamlarni taniydigan 55 ta kamera, savdo markazlari va bozorlarga 18 ta kamera o'rnatish rejalashtirilgan. O'ylaymizki, ushbu sa'y-harakatlar kelgusida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni jilovlash orqali aholining tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qiladi.



AN'ANALAR BARDAVOM

Ma'lumki, yosh xodimlarni tarbiyalash, ularning kasbiy mahoratini oshirishda soha faxriylarining boy tajribasi juda asqatadi. Yaqinda shahar IIBda o'tkazilgan navbatdagi Uch avlod uchrashuvi bunga yorqin misol bo'la oladi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirining maslahatchisi, iste'fodagi polkovnik O. Turdaqov, vazirlikning Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi podpolkovnik F. Sankibayev, bir qancha faxriylar, shahar IIB xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar so'nggi paytlarda joylarda xavfsiz muhitni yaratish borasida davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berishdi. Shu bilan birga har bir xodim o'z vazifasiga sidqidildan yondashsagina bu borada ko'zlangan maqsadlarga erishilishini, xalq davlatdan rozi bo'lishini, buning uchun barcha imkoniyatlar yaratilganini alohida ta'kidlashdi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Yuksak mukofot sohiblari

«MAHALLAM TINCHLIGI UCHUN QALQONMAN»

Har bir inson o'z xizmat faoliyatida jamiyat, xalq, Vatanga naf keltirishni niyat qilsa, albatta, muvaffaqiyatga erishadi. Pastdarg'om tumani Ichki ishlar bo'limi 1-sonli IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Asliddin Sultonov ham shunday ezgu niyatli xodimlardan hisoblanadi.

Ayni damda «Ilm» mahallasida profilaktika inspektori lavozimida xizmat qilayotgan bu xodim shu yil 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga muvofiq «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

Mahallada 5668 nafar aholi 1158 ta oilada istiqomat qiladi. Lavhamiz qahramoni ular tinchligi va ahilligini ta'minlashga, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga mas'uliyat bilan yondashadi. Har kuni, har soat odamlar orasida. Mav-



jud masala va muammolarga qonuniy yondashib, yechimi yuzasidan huquqiy maslahat beradi, ayrimlarini birgalikda hal qiladi. Muqaddam sudlangan shaxslar bilan ochiq muloqot qilib, ularga oqilona ish tutishni, qilmishlarini takrorlamaslikni tushuntiradi. Hayot tajribasida ko'rgan, yaxshi tarafga o'zgarib ketgan taqdirlardan hayotiy misollar keltiradi. Har bir qarorni puxta o'ylab qilishga chorlaydi. Shu bois, mahallada turli sabablar bilan ro'yxatda turuvchi

shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilmadi.

– Mahallamiz tinch, aholimiz xotirjam. Sababi mahallamiz profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Asliddin Sultonov o'z ishiga mas'uliyatli. Vazifalarini qat'iy tartib asosida bajardi. Odamlarga har bir yangi qonun mazmun-mohiyatini, ularning el-yurt manfaatiga xizmat qilishini erinmay tushuntiradi. Shundan bo'lsa kerak aholimizning qonunlarga hurmati, tinchlik va obodonchilik ishiga daxldorligi ancha ort-

gan, – deydi mahalla raisi Shavqiddin Allayorov. U yoshlar, voyaga yetmagan bolalar tarbiyasiga ham alohida e'tibor beradi. Darsga bormagan yoki kechasi ko'chada daydib yurgan bolalarni ko'rsa, darhol ota-onalari bilan gaplashadi. Bu harakatini takrorlaganlarga nisbatan esa qonuniy choralar ko'radi. Shu bois, ko'chada sang'ib yurgan yoki qo'lida sigareti bor bolani, o'smirni uchratmaysiz.

– El tinchligini saqlash bir kishining ishi emas. Aholi hushyor bo'lmasa – o'g'irlik, qonunlarni hurmat qilmasa – o'zaro nizo va janjallar ko'payishi aniq. Shu bois, aholi huquqiy savodxonligini oshirishga, har bir nojo'ya xatti-harakatning sabab va oqibatini tushuntirishga alohida e'tibor qaratdim. Ba'zan sodir etilgan jinoyatlarni ochishda uyqusiz tunlar, halovatsiz kunlarim bo'lgan. Ammo bu qiyinchiliklar meni cho'chitmaydi. Chunki, kasbimni sevaman. Bu mening taqdirimga aylan-

gan, – deydi podpolkovnik A.Sultonov. – Ochig'i bu mukofotda mahalla ahlining har bir fuqarosining hissasi, ulushi bor. Ammo u mahallaning mas'ul vakili sifatida menga berilgani, el orasidagi hurmatimni, qadrimni oshirdi. Balki, shaksiz, gumonsiz qilingan xizmatning nafi o'zingga ko'proqdir, degani shu bo'lsa kerak. Albatta, bundan keyin ham bor kuch va g'ayratim bilan Vatanimga xizmat qilaman. Mahallam tinchligi uchun qalqonman.

Beminnat xizmatidan baxt topgan inson haqiqiy saodat egasi. Uning xizmatiga berilgan bu yuksak mukofot esa el tinchligi yo'lida qilgan xizmatlariga e'tirof va munosib rag'batdir. A.Sultonovning turmush o'rtog'i Azizaxon bilan inoqlikda tarbiyalab o'stirayotgan 2 qiz, 2 o'g'il ularga kelajak tayanchi va suyanchidir.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

Катта инспектор нима дейди

ЮРТБОШИМИЗ ИШОНЧИН

27 январь куни Президентимиз раислигида давлат ва жамият хавфсизлигига тўғридан-тўғри таҳдид қилаётган уюшган жиноятчилик, наркожиноятлар, кибержиноятлар ва яширин иқтисодиёт бўйича таъсирчан чораларни белгилаш юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилишида ҳудудий студия орқали қатнашиб, ўз олдимга бир қатор устувор вазифаларни белгилаб олдим.

Юртбошимиз ҳар бир йўналишга, хусусан, профилактика инспекторларининг хизмат фаолиятига ҳам алоҳида тўхталиб, уларни янада қўллаб-қувватлаш ва жамиятдаги обрўсини ошириш бўйича қатор янгиликларни эълон қилди.

Мен шу тизимда хизмат олиб бораётган катта инспектор сифатида кейинги йилларда давлатимиз раҳбарининг бевосита маҳаллаларга ва профилактика инспекторларига бераётган эътиборини ўзимнинг кундалик фаолиятимда ҳис этиб турибман.

Менга бириктирилган Фарғона шаҳридаги «Маърифат» МФЙда 6519 нафар аҳоли истиқомат қилади. Бу ҳудуд шаҳар марказида жойлашганлиги сабабли, 1200 тага яқин савдо нуқталари ва турли давлат идораларининг бинолари, катта истироҳат боғи жойлашган. Шу bois маҳаллага бир кунлик фуқаролар оқими қарийб 15 000 нафарни ташкил этади.

Очиқ айтишим керак, 2025 йилгача, яъни юртбошимизнинг маҳаллаларда хавфсиз муҳит



яратишга қаратаётган эътибори, шу йўналишдаги 2 та қарори қабул қилинмагунча маҳалламизда жиноятчилик салмоғи юқори бўлиб, криминоген «оғир» тоифага киритилган эди. Илгари ҳудудда

бир ўзим хизмат олиб борган бўлсам, Президентимизнинг тегишли қарори билан қўшимча 2 нафар профилактика инспектори, 2 нафар патруль-пост хизмати ходими ва қўриқлаш ходимла-



Yoshlar — kelajak bunyodkori

QAT'IYATLI VA KIRISHIMLI

Navoiiy viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni tumanlararo PPX otryadi 1-guruh inspektori, safdor Madadbek Jo'raqulov ichki ishlar organlari safida xizmat qilayotganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Ammo qat'iyatligi, xushmuomalaligi, tartib-intizomligi bilan jamoa orasida tez hurmat qozondi.

U odatda Karmana tumani markazida xizmat o'taydi. Bu yerda ko'plab savdo do'konlari, maishiy xizmat obyektlari, bozor, maktab, bog'cha va sihatgohlar joylashgan. Xullas, aholi gavjum bo'ladi. Madadbek Jo'raqulov faoliyati davomida ko'plab huquqbuzarliklarning oldini olishga, jamoat tartibini saqlashga o'z hissasini qo'shmoqda. Ayniqsa, tungi reydlarda faol qatnashadi.

Yaqinda o'tkazilgan tadbir chog'ida shubhali ko'ringan shaxsni to'xtatib, hujjatlarini ko'zdan kechirdi. Shunda uning qidiruvda ekanligini aniqladi. Lavhamiz qahramoni xizmat davomida faqat huquqbuzarlikka qarshi kurashibgina qolmay, aholi bilan muloqotga ham alohida e'tibor qaratadi. Chunki jamoat xavfsizligi faqat jazo yordamida emas, balki profilaktik ishlar bilan ham ta'minlanadi.

Karmana tumanidagi dehqon bozorida kun bo'yi odam gavjum bo'ladi. Erta tongdan sotuvchilar-u xaridorlarning g'ala-g'ovuri, mashinalarning ovozi eshitilib turadi. Shunday shovqin-suronda bozordagi xo'jalik mollari rastasida savdo qiladigan tadbirkor ayol hisob-kitob qilinganda anchagina pullari yo'qolganini payqadi. Ushbu holat yuzasidan IIBga murojaat qildi.

Safdor Madadbek Jo'raqulov o'z yo'nalishi bo'ylab xizmat o'tab yurgan paytida mazkur xabarni qabul qildi. U tezkor guruh bilan hodisa joyiga yetib bordi. Bozordagi videokuzatuv moslamalari ko'zdan kechirildi. Kadrlarda yosh yigit rastalar orasida aylanib yurgani, sotuvchi ayolning bir necha lahza chalg'iganidan foydalanib, uning sumkaga qo'l suqqani aks etgandi.

Ammo uni topish oson kechmadi. Chunki yigit qo'lga tushmaslik maqsadida bosh ki-

yimini almashtirgan, egnidagi kiyimini teskari kiygan, bozordan chiqqach yo'nalishini bir necha marta o'zgartirgan edi. Xullas o'zicha uddaburonlik bilan reja tuzgandi.

Safdor Madadbek Jo'raqulov hududni yaxshi bilgani bois, hamkasblari bilan birga bozor atrofidagi kirish-chiqish yo'laklarni nazoratga oldi. Gumon qilinuvchini qidiruv ishlari boshlab yuborildi. Oradan ko'p o'tmay, bozorga yaqin ko'chada shoshib ketayotgan yigit to'xtatildi. Uning tashqi ko'rinishi videokadrlardagi tasvirlar bilan solishtirilib, gumon qilinuvchi shaxs aynan shu yigit ekanligiga ishonch hosil qilindi.

Ma'lum bo'lishicha, u avval ham mayda o'g'rilik sodir etgani uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan, vaqtinchalik ishsiz ekan. Jabrlanuvchi ayol pullarini qaytarib olarkan, haligi yigitga qarab: «Bolam tengi ekansan. To'g'rilikcha so'rasang, o'sha pulni bermasmidim?!» — deya kuyindi. Balki, shu so'zlar yigit uchun eng katta dars bo'lgandir. Madadbekning xizmat faoliyatida bunga o'xshash voqealar uchrab turadi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



АЛБАТТА ОҚЛАЙМИЗ!

ри бириктирилиб, яхлит тизим шакллантирилди. Улар кучимга куч бўлиб қўшилди, имкониятларим янада кенгайди.

Натижада жиноят ўчоғи ҳисобланган Юксалиш, Нурафшон, Сайлгоҳ кўчалари хавфсиз кўчага айлантирилди. Нуробод, Навоий ва Маърифат кўчаларидаги кўп қаватли уйлар олдида хавфсиз йўлаклар ташкилланди. Асосий кириш ва чиқиш жойлари, гавжум масканларга 95 та кузатув камераси, 50 дона ташвиш тугмаси, 61 та домафон ўрнатилди. 271 та объект ва 72 та хонадон қўриқловга олинди. Барча камералар хизмат хонамга ва вилоят ИИБ қошидаги Ситуацион марказга интеграция қилинди.

Ҳозирда қўлимдаги планшет орқали маҳалламга кириб келган алоҳида тоифадаги ва қидирувда-

ги шахслар, бедарак йўқолганларни бир зумда аниқлаш имкониятига эгаман. Шунингдек, «Менинг инспекторим» мобил иловасига ҳар бир фуқарони мурожаатлари ва таклифларини масофавий қабул қилиб, вақтим анча тежалеяпти.

Бундан ташқари, аҳолининг ижтимоий муаммоларини маҳалла еттилиги билан ҳамкорликда, «хонадонбай» усулида ҳал этишга ҳаракат қиляпмиз. Масалан, ўтган йилда 85 нафар ижтимоий профилактика объектини аниқлаб, уларга амалий ёрдам кўрсатдик ва қўшма хулосаларни ижобий ҳал этдик. Низоли оилалар билан тизимли иш олиб бордик. Миграциядан қайтган ва хорижга чиқиб кетган фуқароларга аниқ манзилли ёрдамлар кўрсатдик.

Оилавий ажримларга ҳам деярли чек қўйдик.

Айни шу жиҳатлар жиноятчиликни жиловлашда жуда қўл келди. Натижада ўтган йилнинг иккинчи ярим йиллигида бирор-та ҳам жиноят содир этилишига йўл қўймадик. Маҳалламизда хавфсиз муҳит юзага келди ва «яшил» тоифага ўтди. Ўтган йил якунида Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Азиз Ташпулатов бошчилигидаги республика ишчи гуруҳи маҳалламизда бўлиб, амалга оширган ишларимизга ижобий баҳо берди. Орттирган тажрибамизни республика бўйича оммалаштириш кераклиги тавсия қилинди.

Президентимизнинг йиғилиш давомида куюнчаклик билан айтган фикрларини чуқур ҳис этган

ҳолда, қўл остимдаги ходимлар билан ўз олдимизга қатор режаларни белгилаб олдик. Жорий йилда ҳам маҳалла еттилиги билан ҳамжиҳат бўлиб, хизмат сифатини янада оширишга астойдил ҳаракат қиламиз. Ижтимоий профилактика йўналишига жиддий эътибор қаратиб, аҳолининг муаммоларини барвақт ҳал этиш орқали жиноятчиликнинг олдини оламиз. Низоли оилалар, ёшлар, аёллар жиноятчилиги, гиёҳванд моддалар савдоси ва кибержиноятларга қарши кескин курашамиз. Энг муҳими, аҳолининг мурожаатларини тезкорлик билан ҳал этиш орқали уларнинг рози қилиш устувор мақсадимдир.

Ғайратжон МИРЗАЕВ,
майор.

Фарғона вилояти.



Ayol va jamiyat

SARIOSIYO TAJRIBASI – SAMARALI FORMULA

Bugungi kunda jamiyat rivojini xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligisiz, ularning huquq va manfaatlari himoya qilinmasdan turib tasavvur etib bo'lmaydi. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida bu borada o'ziga xos tizim yaratilgan bo'lib, u quruq raqamlar emas, saqlab qolingan oilalar, tiklangan taqdirlarda o'z ifodasini topmoqda.

RAQAMLAR ORTIDAGI TAQDIRLAR

Tuman IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, kapitan Gulnigor Elmurodova boshchiligidagi olib borilayotgan ishlar «Buxoro tajribasi»ga asoslangan holda, 13 ta toifadan iborat maxsus kontingent bilan tizimli ishlashga yo'naltirilgan. Xo'sh, bu yondashuv qanday samara bermoqda?

O'tgan yilning o'zida tumanda ajrim yoqasiga kelib qolgan 211 ta oilaning 167 tasi aynan hamkor tashkilotlar va ichki ishlar organlarining aralashuvi bilan saqlab qolindi. Bu shunchaki statistika emas, balki 167 ta xonadonda bolalarning tirik yetim bo'lib qolmasligi, er-xotin o'rtasidagi rishtalarning qayta tiklanishi demakdir.

Tazyiqlardan jabr ko'rgan 227 nafar ayolga himoya orderlari rasmiylashtirib berilishi davlat xotin-qizlarni o'z holiga tashlab qo'ymasligidan, qonun ustuvorligidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy nizolarning katta qismi iqtisodiy yetishmovchilik oqibatida kelib chiqadi. Sariosiyoda muammoning ayni shu jihatiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, «Ayollar daf-tari»ga kiritilgan, og'ir ijtimoiy vaziyatdagi 5562 nafar ayolning taqdiri diqqat markazida bo'ldi. Natijada 4194 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. Tadbirkorlik istagida bo'lgan 37 nafar ayolga 668 million so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Yana 888 nafar xotin-qiz kompyuter savodxonligi, pazandachilik, tikuvchilik kabi kasblarga o'qitildi.

Bu sa'y-harakatlar natijasida yuzlab ayollar daromad manbayiga ega bo'lish asnosida, jamiyatda o'z o'rnini topdi. Kasbli ayol – o'ziga ishongan, farzandlarini ilmiy qilib tarbiyalay oladigan kuchdir.

PROFILAKTIKA: OQIBAT EMAS, SABAB BILAN KURASHISH

Kapitan G.Elmurodova faoliyatining yana bir muhim qirrasini – bu



profilaktika. Haftaning har juma kuni yangi turmush ostonasida turgan qizlar uchun tashkil etilayotgan seminarlar kelgusidagi mustahkam oilalar uchun poydevor vazifasini o'tamoqda. Shuningdek, jinoyat sodir etgan, tarbiyasi og'ir voyaga yetmagan qizlar va mas'uliyatsiz ota-onalar bilan olib borilayotgan individual suhbatlar jinoyatchilikni jilovlashda muhim omil bo'lmoqda.

Tuman misolida shuni ko'rish mumkinki, xotin-qizlar muammolari bilan ishlashda «qo'llab-quvvatlash va yo'naltirish» mexanizmi eng to'g'ri

yo'l. Ayol qachon baxtli bo'ladi? Qachonki oilasida tinchlik hukm sursa, qo'lida hunari va ertangi kunga ishonchi bo'lsa. Kapitan Gulnigor Elmurodova va uning hamkasblari olib borayotgan ishlarning asl mazmuni ham shunda: ayolni jamiyatning faol a'zosiga aylantirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va yurt farovonligini ta'minlash. Zero, ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxtlidir.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Sohaviy xizmatlarda

HUSHYORLIK KAMAYSA, XAVF ORTADI

Uchtepa tumanidagi «O'rikzor» savdo majmuasi poytaxtimizning eng yirik savdo markazlaridan biri sifatida nafaqat poytaxt ahli, balki butun respublikadan tashrif buyuruvchi odamlar bilan doim gavjum. Shu bois ushbu hududda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash alohida mas'uliyat talab etadi.

Yil boshidan buyon tuman IIOFMB JTSB PPX 2-otryad xodimlari tomonidan amalga oshirilgan tezkor va profilaktik tadbirlar natijasida bozor hududida 3 ta o'g'irlik jinoyati fosh etildi va qidiruvda bo'lgan 6 nafar shaxs qo'lga olindi.

– Bu borada otryad inspektorlari, safdorlar Abdujalil Nabiye, Saidkamolxo'ja Xolmatov, Muhammadjon Muhiddinov, Alimardon Akbarov hamda A'zamjon Ismoilovlarning xizmatini alohida qayd etish joiz, – deydi IIOFMB JTSB PPX 2-otryad komandiri o'rinbosari, leytenant Sherzod Avazov.

Bugungi kunda kiberfiribgarlikning yangi ko'rinishlari, ayniqsa, plastik kartalar va oldi-sotdi jarayonlari bilan



bog'liq aldov holatlari ko'p uchramoqda. Shu sababli, bozor profilaktika katta inspektori Abbas Qodirov PPX xodimlari bilan hamkorlikda fuqarolar o'rtasida muntazam ravishda kiberxavfsizlik bo'yicha tushuntirish ishlari olib bormoqda. Xaridorlarga shaxsiy ma'lumotlarini begonalarga bermaslik va shubhali ko'ringan xaridorlar bilan muloqotda ehtiyotkor bo'lish bo'yicha tavsiyalar berilmoqda.

Xodimlarning hushyorligi natijasida yaqinda yana bir ko'ngilsizlikning oldi olindi. Bedarak yo'qolgan

namanganlik yigit-qiz bozorida telefon sotishga urinayotgan vaqtida PPX xodimlari tomonidan aniqlandi. Suhbat jarayonida ular uyidan qochib chiqib ketganligi



ma'lum bo'ldi va holat yuzasidan zudlik bilan yaqinlariga xabar berildi. Bu voqea soha xodimlarining nafaqat tartibni saqlash ishiga, balki inson taqdiriga befarq emasligining yaqqol isboti.

Bozor atrofidagi yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash ham diqqat markazida. Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi 4-batalyon 5-safarbarlik guruhi inspektori, serjant Elbek Yorboboyev transport vositalari va piyodalar xavfsizligini ta'minlashga mas'ul. Uning ta'kidlashicha, ko'pgina piyodalar tomonidan svetofoarning taqiqlovchi ishoralariga amal qilmay yo'lni kesib o'tish holatlari uchrab turibdi. Bu nafaqat qoidabuzarning, balki

boshqa harakat ishtirokchilarining ham sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadi.

Shuningdek, ayrim transport vositalari egalari tomonidan ham qoidabuzarliklar sodir etilmoqda. Xususan, belgilanmagan joylarda to'xtash, to'xtab turish qoidalarini buzish va piyodalarga yo'l bermaslik holatlari shular jumlasidan. Bunday vaziyatlarda profilaktik suhbat va tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Qo'pol qoidabuzarlikka yo'l qo'yganlarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rilmoqda.

Bozorda xavfsiz bo'lish uchun faqatgina ichki ishlar organlari xodimlarining harakati kamlik qiladi. Buning uchun har bir sotuvchi va xaridor birdek ogoh va hushyor bo'lishi kerak. Shundagina bozorga kelgan har bir inson uyiga xotirjam va yaxshi kayfiyat bilan qaytadi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV
olgan suratlar.

Toshkent shahri.



MAKTABDAGI PROFILAKTIKA nojo'ya qadamdan asrar



O'sha kuni boshqa maktabda «Davomat» tadbirida edim. Menga biriktirilgan 8-sonli maktabdan shoshilinch xabar qilishdi: «Tez yetib keling. Bir o'quvchimiz yo'q, uyiga ham bormagan. Ota-onasi maktabga kelib turibdi». Ta'lim muassasasiga borganimda esa, ota-onaning holati meni jiddiy xavotirga soldi. Ular ko'proq farzandini yo'qotganga emas, kimdandir qasd olishga tayyor insonlarga o'xshardi: asabiy, nigohlari g'azabnok. O'quvchi qizni topish qiyin bo'lmadi. Mahalla faollari orqali tezda uning boshqa mahallada bemaqsad yurganini bildik.

O'quvchi bilan tezda suhbat o'tkazishim kerak edi. Suhbatdan oldin uning oilaviy muhitini o'rgandim. O'rganish shuni ko'rsatdiki, muammo oilada, oila muhitida.

O'quvchi bilan o'tkazilgan suhbat bir soatga yaqin davom etdi, ammo natija bo'lmadi. Unda qo'rquv va ichki zo'riqish kuchli edi. Fikrini aniq ifodalab bera olmadi. Kasbim tez va ishonchli qaror qabul qilishni talab qiladi. Chunki yuzlab, minglab voyaga yetmaganlar bilan ish olib borish jaryonida har bir daqiqa oltinga teng. O'quvchi qizni sinf rahbari bilan birga Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Jizzax filialiga olib bordik. Mutaxassislar o'quvchida kuchli ruhiy zo'riqish borligi va davolanishi zarurligini ta'kidlashdi. U bir hafta davomida davolanib chiqdi.

Bu vaqt mobaynida mahalla yettiligini jalb etgan holda, qizning ota-onasi bilan ish olib bordim. Tarbiyadagi xatolar tahlil qilindi, ularga farzand oldidagi mas'uliyat va burch tushuntirildi.

Natija ko'p kuttirmadi. Bugun qiz doimiy tarzda maktabga kelmoqda. Oila uning hayotida ahamiyat kasb eta boshlagani ham yaqqol seziladi. Bu – faoliyatimizning eng yoqimli jihati.

Arnasoy tumanida 11 ta mahalla mavjud. Mahallalar yettiligi bilan yaqin hamkorlikda ishlayman. Shuningdek, maktablarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, maktab psixologlari yaqin hamkorlarim.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikning oldini olishda psixologik yondashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega. Men har kuni o'smirlar bilan maktab va mahallalarda muloqotlar orqali og'ib ketayotgan xavfli yo'llardan ularni qaytarishga urinaman. Individual psixodiagnostika, ota-onalar bilan maslahat, profilaktik treninglar, tezkor psixologik yordam ishlari olib borilishi natijasida tumanimizda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar soni kamaymoqda.

Sir emas, bugun kuzatilayotgan kiberjinoyatlar va o'smirlar o'rtasidagi bulling raqamli dunyoning asoratlari hisoblanadi. Shu bois mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikda xavfsiz internet, hissiyotlarni boshqarish, do'stlik, bosim ostida qolish kabi mavzularda treninglar, darslar tashkil etyapmiz. Bu mashg'ulotlar orqali o'smirlar o'z his-tuyg'ularini to'g'ri ifoda etishni, xavfli vaziyatlardan chiqish yo'llarini va stressga qarshi kurashish usullarini o'rganishmoqda. Mahallalarda bunday tadbirlar muntazam o'tkazilayotgani sababli yoshlar o'rtasida kiberxavfsizlik va tengdoshlar bosimiga berilish holatlari kamaymoqda.

Oilalar xavfsiz bo'lsa, bolalar ham xavfsiz bo'ladi. Bu faqat jismoniy emas, balki ruhiy xavfsizlikka ham taalluqli. Mahalla yettiligi bilan hamkorlik, oilalar bilan psixologik ishlash va maktablardagi profilaktika bu yo'ldagi eng samarali vositadir.

Shohrux QO'LDOSHEV,
katta leytenant.

Jizzax viloyati.

Соҳа фидойиси

ҚУВОНЧЛИ ЛАҲЗАЛАР

Ички ишлар органларининг кўп йиллик тажрибига эга, масъулиятли, ўз бурчига содиқ ходимлари жамият хавфсизлигини таъминлашда алоҳида ўрин тутadi. Ана шундай фидойи инсонлардан бири Сирдарё вилояти Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси Навбатчилик қисми катта навбатчиси, подполковник Ҳусан Донишевдир.

Лавҳамиз қаҳрамони Гулистон Давлат университетида кимё-биология йўналиши бўйича ўқиган. Бир муддат Янгиердаги гимназияда ўқитувчилик қилган. 1997 йил бошида лавҳамиз қаҳрамонининг ҳаётида қувончли воқеа содир бўлди – уни Сирдарё вилояти Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармасига эксперт лавозимига қабул қилишди. Шу кундан у ҳаётини жиноятчиликка қарши курашишга бағишлади.

Кейинчалик тезкор вакил, катта тезкор вакил лавозимла-



рида хизмат қилиб, транспорт объектларида содир этиладиган жиноятларни фош қилиш борасида бой тажриба тўплади. Айниқса, поездларда содир этилган ўғрилик, гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний айланиши билан боғлиқ жиноятларни очиш ҳамда қидирувда бўлган шахсларни аниқлаш йўналишида бор маҳоратини намойён этди.

2005 йилда Душанбе – Москва йўналишидаги поездда хизмат вазифасини бажарётган пайтида ёши тахми-

нан ўттизларда бўлган, узун плаш кийган аёлнинг шубҳали хатти-ҳаракатларига эътибор қаратади. Назорат тартибда ўтказилган текширув давомида унинг энги ичидан 200 грамм героин топилади.

Ҳусан Донишевнинг иш фаолиятида Сирдарё вилояти Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси ҳузурида ташкил этилган Ижтимоий ҳаётга мослаштириш марказига раҳбарлик қилган даври муҳим ўрин тутadi. Ана шу йилларида у халқаро қиди-

рувда бўлган бир неча хавфли жиноятчиларни қўлга олишга муваффақ бўлади.

Улардан бири Гулистон темирийўл вокзалидан ушлаб келтирилади. У асли тожикистонлик бўлиб, Россиянинг Саратов шаҳрида бир неча йил меҳнат фаолияти билан шуғулланган. Бир хонадонда қурилиш ишларини бажарган пайтида, уй эгаси уни ҳақорат қилган. Шунинг учун хонадон соҳибини ваҳшийларча ўлдириб, унинг хотинига оғир тан жароҳати етказиб, Ўзбекистонга қочиб келади. Ҳусан Донишев тезкор суриштирувлар, маълумот алмашинуви натижасида ушбу шахснинг қора қилмишини фош этади.

Иккинчиси эса Россиянинг Свердловск шаҳридан келган, эллик ёшлар атрофидаги рус миллатига мансуб шахс бўлиб, қўй оғзидан чўп олмайдиغان даражада юввош инсон сифатида кўринишга ҳаракат қилади. Тезкор суриштирувлар жараёнида Егор исмли ушбу кимса муқаддам ўғрилик ва босқинчилик жиноятлари содир этгани учун судлангани маълум бўлади. Шунингдек, хонадонлардан

бирига ноқонуний кириб, уй бекасини ва унинг бир ёшли гўдагини ўлдириб, Сирдарё вилоятига қочиб келгани аниқланади.

– Подполковник Ҳусан Донишев биринчи устозим, – дейди Сирдарё вилояти Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси ҳузуридаги Тергов бўлими бошлиғи, майор Икром Турсунов. – Оддий сафдор бўлиб, хизматга келган пайтимаёқ унинг назарига тушдим. Ҳусан ака мени ҳар томонлама қўллаб-қувватлади. Унинг маслаҳати билан ИИБ Академиясини тугатдим. Соҳада эришган катта-кичик ютуқларим учун устозимдан бир умр миннатдорман.

Ҳусан Донишев бахтли оила соҳиби. Ўғилларининг каттаси Ховос тумани Электр таъминоти корхонасида муҳандис, кичиги эса умумтаълим мактабда ўқитувчи. Лавҳамиз қаҳрамони кечкурун хизматдан қайтганида, уч набираси югуриб пешвоз чиқишади. Уларни бағрига босиб, бор чарчоғини унутади. Мана шундай қувончли лаҳзаларда ҳаётдан мамнун бўлиб кетади.

Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,
ўз мухбиримиз.

Сирдарё вилояти.

Мулоҳаза



МИЯНГИЗДАГИ ТЎСИҚЛАРНИ ОЛИБ ТАШЛАНГ

Инсон камолотида тарбия муҳим аҳамият касб этади. Турмуш тарзи, атроф-муҳит, ўқиш-ўрганиши, олаётган таълими ва тарбияси алалоқибат унинг ахлоқ-одобига ижобий ёки салбий таъсир кўрсатади. Хитой файласуфи Сюн Цзи «Чақалоқлар ҳамма ерда бир хил йиғлайди. Катта бўлганида ҳар хил қилиқлар қилади. Бу – тарбиянинг оқибати», дея баҳо беради.

Шунинг учун қадимдан ота-боболаримиз илм ва тарбия масаласига жиддий эътибор қаратишган. Фарзандлар тарбиясига эса глобал вазифа сифатида қарашган. «Бола азиз, одоби ундан-да азиз», «Бешикдан то қабргача илм изла», деган ўғитлар шундан. «Агар болаларингиз ақлли бўлишини истасангиз, уларга эртақ ўқиб беринг. Агар янада ақллироқ бўлишини хоҳласангиз, ундан-да кўпроқ эртақ ўқиб беринг», дейди Альберт Эйнштейн.



чалишни ўрганган ва бу санъатни мукамал эгаллашга муваффақ бўлган. Микеланжело ўзининг энг муҳим расмларини 80 ёшида чизган. Гёте 80 ёшида «Фауст» асарини тугаллади. Немис тарихчиси Леополд Ранке 91 ёшида «Жаҳон тарихи» асарини ёзиб битирди. Исаак Ньютон 85 ёшида ҳам тинимсиз илмий фаолият билан банд эди.

Лев Толстой 82 ёшида далани ўроқ билан шундай ўрганки, ёш ўроқчилар унга етиб бора олмасди. «Уруш ва тинчлик» романининг оппоқ соқолли муаллифи шу мўътабар ёшида конькида учди, велосипедда, отда сайр қи-

Аммо бугун болалар эртақ эшитармикан

Эшитади. Чунки шиддат билан ўзгарётган замон ўзига мос тарбия олишни, ҳатто уни ўзига мослаб беришни ҳам талаб қилаяпти, ўргатапти ҳам. Фақат биз ота-боболаримиз айтган «Замон сенга боқмаса, сен замонга боқ», деган ўғитга амал қилмаяпмиз, холос. Шунинг учун бугун, аввало, бешикда ётса ҳам телефон, деб хараша қилиб йиғлаётган гўдакка тасвирли эртақ ёзилган телефонни беришимиз керак. Шунда у янада ақлли бўлиб вояга етади.

Афсуски, вақтнинг қадрини ҳамма бирдеканглайвермайди. Бир йилнинг қадрини кириш имтиҳонларидан йиқилган талаба билиши мумкин. Бир соатнинг қадри севгилисини кутаётган ошқоқа яхши билинади. Бир дақиқанинг қадрини эса поездга кечикаётган кишидан сўраш керак. Аввало, ҳеч кимнинг бошига тушмасин, сониялар қадрини автоҳалокатда яқинларидан айрилган кишилар яхши билишади.

Шунинг учун вақт соат миллари тўхтаб қолгани билан ўлчанмаслигини, негаки дунёдаги барча соатлар юрмаса ҳам, у ўтаверишини, бу чархи дун сизу биз ҳаракат қилсак ёки қилмасак ҳам, бир текисда айланаверишини чуқур англашимиз лозим. Аммо янги замон илми, тарбияси мана шу қисқа вақтни чўзиш ва кенгайтириш учун имкониятлар

мавжудлигини ҳам қайд этмоқда.

Масалан, яқинда америкалик олимлар европалик ҳамкасблари билан биргаликда шов-шувли кашфиётни эълон қилишибди. Маълум бўлишича, инсон мияси аввал ўйлаганимиздек 25–30 ёшгача эмас, балки 50 ёшгача ривожланаркан. Бундан ташқари, агар одам фаол ақлий фаолият билан шуғулланишда давом этаверса, мия қариши деярли содир бўлмас экан. Сабаби, «кексалик» деган касаллик йўқ, фақат нотўғри психологик қарашлар мавжуд, деган хулосага келишибди улар.

Таниқли психиатр Даниел Амен «Эшитганингизнинг ҳаммасига ишонманг, ҳатто ўз бошингизда бўлса ҳам», деб маслаҳат беради.

Бизнинг руҳимиз, ички кучларимизнинг ёши йўқ. Биз тирик эканмиз, ҳали

ҳам юқорига кўтарилиш имконияти мавжуд – руҳий юксалиш йўлида ҳеч бўл-

“**ҲАЁТИМИЗДАГИ ЭНГ КАТТА ТЎСИҚЛАРНИНГ БАРЧАСИ ЎЗИМИЗНИНГ ИЧИМИЗДА. УЛАРНИ ОЛИБ ТАШЛАНГ!**

маганда яна бир балан-дликка кўтарилишимиз мумкин.

Мана, сизга тарих саҳна-сидан жой олган тирик мисоллар.

Рим сенатори Маркус Като 80 ёшида юнон тилини ўрганган.

Сукрот 70 ёшидагина кўплаб чолғу асбобларида

ларди ва тўппонча билан (бир оёғида) 40 мартадан кўпроқ ўтириб-туришни машқ қиларди.

Хўш, биз нега жим ўтирибмиз? Миямиздаги тўсиқларни олиб ташлаш вақти келмадимикан?!

Шухрат РЎЗИЕВ,
ўз мухбиримиз.

Қорақалпоғистон Республикаси ИИВ раҳбарияти, шахсий таркиби ва Ўзбекистон Республикаси ИИВ Фахрийлар кенгаши истеъфодаги генерал-майор

Жанабай ШИЛМАНОВнинг

вафоти муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари ва яқинларига ҳамдардлик билдиради.



Kasb fidoyisi

RUHIYAT KO'TARINKI BO'LSA

Viloyat IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi psixologi, katta leytenant Jamol Nematov Buxoro davlat universitetini tugatib, ilk ish faoliyatini Buxoro shahridagi 24-sonli Ko'rish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasida psixolog sifatida boshlagan. Prezidentimiz qaroriga asosan mazkur ta'lim dargohi IIVga birlashtirilgach, unda yana bir imkoniyat tug'ildi. Va 2021-yilda Buxoro shahar IIOFMB Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog lavozimida xizmatini boshladi. Bir yildan so'ng hozir egalab turgan lavozimiga o'tkazildi.

Katta leytenant J. Nematov markazda saqlanayotgan bolalarning ota-onasi bilan suhbat o'tkazib, ularning holati, muammolari va kelgusidagi ta'lim-tarbiyasi yuzasidan atroflicha fikr almashadi. Shu bilan birga, bolalarning ruhiy holatini yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash maqsadida turli psixologik o'yinlar o'tkazib,

jamoaviy hamda yakka tartibdagi psixologik treninglar tashkil etib boradi.

Kasbini chinakam sevgan kishigina doimo yangilik sari intiladi. Lavhamiz qahramoni vaqtini behuda o'tkazmaydi, hamisha izlanadi va xizmat faoliyatidan unumli foydalanib, zimmasidagi vazifalarini o'z vaqtida bajaradi. Xususan, uning ko'magida markazga qabul

qilingan voyaga yetmaganlarning 400 nafari ota-onasi hamda ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga topshirilgan. Shuningdek, viloyat hududida 64 nafar voyaga yetmaganning nazoratsiz va qarovsiz qolganligini aniqlab, markazga joylashtirgan. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida 20 taga yaqin maqolalar chiqargan, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va qarovsizligining oldini olish borasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borgan.

Jamolning el-yurt osoyishtaligini saqlash yo'lidagi jonkuyarligi munosib baholanib, rahbariyat hamda viloyat hokimi tomonidan ko'p marta rag'batlantirilgan. Qolaversa, o'tgan yili viloyat ichki ishlar organlari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi psixolog» ko'rik-tanlovida faxrli ikkinchi o'rinni egalladi. Shuningdek, viloyat IIBning «Quvnoqlar va zukkolar» terma jamoasi a'zosi sifati qatnashib kelmoqda.

Inson baxtining to'kisligi oilasiga ham bog'liq. Turmush o'rtog'i Mohinabonu Hasanova 24-sonli «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatida boshlang'ich sinf o'quvchilariga saboq beradi. Ular ikki nafar farzandni komil inson qilib voyaga yetkazishmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



Ota izidan

Toshkent viloyati IIBB Ikkinchi mintaqaviy hududi Ohangaron tumani IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'riy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Abdulla Eltuydiyev 2012-yildan ichki ishlar organlari safida. U ilk xizmat faoliyatini IIV huzuridagi Qo'riqlash birlashmasi «Mustaqillik» maydoni va maydonda joylashgan ma'muriy binolarni qo'riqlash bo'yicha komendatura otryad militsioneri sifatida boshlagan. Keyinchalik, Toshkent viloyati ichki ishlar organlarida turli lavozimlarda xizmat qilgan. 2022-yildan ayni lavozimida.

BU O'ZGACHA G'URUR EDI...



– Dunyoda sharaflari va zifalar ko'p, ammo ular ichida eng sharaflisi Vatanningni himoya qilishdir. Bu tuyg'uni ilk bor bizga otamiz singdirgan, – deydi mayor A. Eltuydiyev.

Darvoqe, lavhamiz qahramonining otasi, iste'fodagi katta serjant Kuchar Eltuydiyev uzoq yillar Qo'riqlash xizmati xodimi bo'lib, 1993-yilda pensiyaga chiqqan. Kuchar ota farzandi uning ishini davom ettirayotganidan xursandligini yashirmadi va nevaralaridan ham umidi katta ekanligini bildirdi:

– O'g'lim mening izdoshim bo'lganidan doim

shodlanaman. O'ylaymanki, uning farzandlari – nevaralarim ham kelajakda ichki ishlar organi xodimlariga aylanib, katta sulolani tashkil etishadi.

Mayor A. Eltuydiyev turmush o'rtog'i Zarifa Eltuydiyeva bilan bir o'g'il va ikki qizni tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda. Hozir ular maktabda tahsil olishadi. Ishonamizki, ular ham bobosi va otasi singari yurt koriga yaraydigan yetuk kadrlar bo'lib ulg'ayishadi.

Abror POYONOV,
katta serjant.

Toshkent viloyati.

Hamkorlik

AXBOROT XAVFSIZLIGI YO'LIDA

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning barvaqt oldini olish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, shuningdek, mazkur yo'nalishda professional kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu munosabat bilan viloyat IIB hamda Namangan davlat texnika universiteti rahbarlari va sohaga daxldor mas'ul xodimlar ishtirokida uchrashuv o'tkazilib, unda o'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi.

Tomonlar kiberjinoyatlar profilaktikasiga qaratilgan targ'ibot ishlarini kengaytirish, raqamli makonda yuzaga kelayotgan yangi turdagi xavf-xatlarning oldini olish bo'yicha samarali himoya choralarini ishlab chiqish, avtomatlashtirilgan aqlli tizimlar va zamonaviy

dasturiy mahsulotlarni yaratish borasida hamkorlikni yo'lga qo'yishga kelishib olishdi.

Shuningdek, universitet hamda viloyat IIB qoshida kiberxavfsizlik yo'nalishida innovatsion malaka oshirish markazini tashkil etish, talabalar va IIB xodimlari uchun qo'shma o'quv kurslari, seminar va treninglar o'tkazish, talabalarning IIB bo'linmalarida amaliyot o'tashini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Tadbir davomida universitet vakillari viloyati IIB huzuridagi Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi va Tezkor boshqaruv markazi faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Ularga yaratilgan shart-sharoitlar, mavjud texnik imkoniyatlar va innovatsion dasturiy yechimlar haqida batafsil ma'lumot berildi. Shu bilan birga, mutaxassislar o'zaro tajriba almashib, kiberxavfsizlik bo'yicha istiqbolli loyihalarni birgalikda amalga oshirish yo'llarini muhokama qilishdi.

Uchrashuv nihoyasida mazkur memorandum kiberjinoyatlarga qarshi kurashda samarali hamkorlikni mustahkamlash, yoshlarni raqamli xavfsizlik bo'yicha malakali kadr sifatida tayyorlash va aholining kiberxavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim qadam sifatida e'tirof etildi.

Jahongir TO'XTASINOV.

Namangan viloyati.



2026-yil — Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

OSOYISHTA HUDUDDA TARAQQIYOT BARDAVOM

Jamiyatning tinchligi va barqarorligi, avvalo, mahalladan boshlanadi. Chunki u insonning qo'shnichilik munosabatlari, o'zaro ishonch va hamjihatlik shakllanadigan makondir. Ana shu muhitda tinchlik-osoyishtalik ta'minlansa, jamoat tartibi mustahkamlansa, mahallaning o'zi ham, unda yashayotgan odamlar hayoti ham izga tushadi. Shu bois hududlarda xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish mahallalar taraqqiyotiga xizmat qiladigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bu borada Asaka tumanida amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga molik. Hududlarda olib borilayotgan tizimli profilaktik chora-tadbirlar natijasida ijobiy ko'rsatkichlarga erishilmoqda. Xususan, o'tgan yil davomida tumandagi mavjud 76 ta mahallaning 30 tasida umuman qo-

nunbuzarlik holatlari aniqlanmagani buning yorqin isbotidir. Bu raqamlar ortida esa aholi bilan yaqin muloqot, muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularga yechim topishga qaratilgan sa'y-harakatlar mujassam.

Bugungi kunda tumanda 290 ming nafardan ziyod aholi is-

tiqomat qiladi. O'tgan yil boshida ichki ishlar xodimlari har bir xonadonda xatlov o'tkazib, aholining mavjud ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini o'rganishdi. Natijada qiyin ahvolga tushib qolgan, ishsizlik yoki daromad manbayining yo'qligi sabab muammolari mavjud bo'lgan fuqarolar ro'yxati shakllantirildi. Ularga amaliy yordam ko'rsatish, doimiy ish joyiga ega qilish, barqaror daromad manbayini yaratish jarayonida mahalla yettiligi bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlar o'z samarasini berdi. Natijada mahallalardagi vaziyat tubdan o'zgardi va oqibatda 7 ta mahalla «qizil» toifadan chiqarildi.

— «Shodlik», «Istiqlol» va Beruniy nomli mahallalarda tumandagi eng yirik bozorlar, shohbekatlar, kasalxonalar, ko'p qavatli uylar, madaniyat va istirohat bog'lari joylashgan. Mahallalarda 2,5 ming nafardan salkam 5 ming nafargacha aholi istiqomat qiladi. Biroq kunlik harakat 15–20 ming nafarni tashkil etadi. Chunki tumanning istalgan hududidan bozor-o'char qilish yoki tibbiyot muassasalariga borish uchun keluvchilar aynan shu mahallalar orqali harakatlanadi.

Darhaqiqat, tuman markazida joylashgan Beruniy nomli mahallada tumanning bosh avtobekati, bosh masjidi va eng yirik bozori joylashgan. Tumandan o'tuvchi barcha avtomobil oqimi ham aynan shu mahalla hududidan o'tadi.

— Nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalla hududiga 165 ta videonazorat kameralari o'rnatdik, — deydi profilaktika inspektori, mayor Lochinbek Umrzoqov. — Ularning bir qismi avtomobil harakatini, bosh-

qalari esa ichki ko'chalarni nazorat qiladi. Bundan tashqari, favqulodda holatlarda fuqarolarning tezkor murojaat qilishi uchun shoshilinch chaqiruv tugmalari ham o'rnatilgan.

Ushbu mahallada beshta ko'cha mavjud bo'lib, 530 ta xonadonda salkam uch ming nafar aholi istiqomat qiladi. Har bir xonadon, har bir oila bilan ishlash katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fuqaro o'z hududidagi profilaktika inspektori yaxshi taniyotgani, u bilan samimiy muloqotda bo'layotgani huquqbuzarlikka yo'l qo'ymaslikda muhim omil hisoblanadi.

— Aholini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratyapmiz, — deydi mayor L. Umrzoqov. — Ayniqsa, jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularning hayotga va jamiyatga moslashuvi biz uchun juda muhim. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar o'z samarasini bermoqda. Rumi ko'chasida yashovchi Nabijon G'ulomiddinov ozodlikka chiqqanidan so'ng, uning holidan xabar olindi, kelgusi rejalari muhokama qilindi. Mahalla yettiligi ko'magida 30 million so'm miqdorida kredit ajratilishiga yordam berildi. Bugun u o'z novvoyxonasini ishga tushirgan, oila a'zolarining barchasi bandligi ta'minlangan.

Bir so'z bilan aytganda, tumandagi mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash borasidagi amaliy ishlar barqarorlikni mustahkamlab, odamlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada oshirayotgani bilan ahamiyatlidir.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



Beruniy nomli MFY profilaktika inspektori, mayor Lochinbek Umrzoqov «Cho'ntak» MFY profilaktika inspektori, kapitan Doniyorbek Ahmedov bilan.

Tezkor tadbir

«HUJRA»LAR FOSH ETILDI

Toshkent viloyati IIBB hamda Davlat xavfsizlik xizmati hududiy boshqarmasi xodimlari hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbirida Zangiota tumani «Chinor» mahallasida yashovchi 44 yoshli shaxs va uning 65 yoshli xolasi ikki xonadonda yashirin tarzda «hujra» tashkil etgani aniqlandi.

Yetarli diniy bilimga, tegishli ruxsatnomaga ega bo'lmagan ushbu fuqarolar o'z uylarida jami 15 nafar voyaga yetmagan bolaga noqonuniy diniy ta'lim berib kelgan. Jumladan, bir xonadonda 10 nafar, ikkinchisida esa 5 nafar bola zarur yashash va ta'lim olish sharoitlarisiz joylashtirilgan. Shuningdek, har bir bola uchun oyiga 1 million so'mdan 300 AQSH dollarigacha miqdorda pul olingani, ayrim hollarda bolalarga nisbatan jismoniy tazyiq o'tkazilgani ma'lum bo'ldi.

Holat yuzasidan bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan ota-onalarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rilgan bo'lsa, noqonuniy diniy ta'lim bilan shug'ullangan ikki nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Hozirda tergov harakatlari olib borilmoqda.

O'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ ФАҚАТ ТЕКШИРУВ ЁКИ ЖАЗО БИЛАН ЧЕКЛАНМАЙДИ бу, энг аввало, онг, позиция ва виждон масаласидир

Давлатимиз раҳбари Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Му-рожаатномасида коррупция давлат тараққиётига тўсиқ бўладиган, адолат ва қонун устуворлигини издан чиқарадиган, жамиятда ишонч муҳитини заифлаштирадиган энг жиддий таҳдид эканлигини таъкидлаб, бу иллатга қарши курашиш бўйича 2026 йилда «фавқу-лодда ҳолат» эълон қилди.

Коррупцияга қарши курашиш агентлиги директори Акмал Бурхо-нов билан бўлган суҳбатимиз айнан коррупцияга қарши курашиш борасидаги режалар хусусида бўлди.

– Акмал Эшондедаевич, Президентимизнинг корруп-цияга қарши курашиш бўйича 2026 йилда «фавқулодда ҳолат» эълон қилгани муҳим воқелиқдир. Айтинг-чи, бу борада агентлик олдида қандай устувор вазифалар қўйилмоқда?

– «Фавқулодда ҳолат» деганда, фақат жазо ёки текширувлар кўпа-йишини тушуниш хато. Агар қарорлар очиқ бўлса, жараёнлар рақамлашти-рилса, назорат жамоатчилиги иштиро-кида амалга оширилса, порахўрликка эҳтиёж ҳам, имконият ҳам кескин қисқаради. Бу йўл оғир, лекин сама-рали. «Ўзбекистон Республикасида коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш тизимини янада та-комиллаштириш тўғрисида»ги Прези-дент фармони билан ана шу йўлдаги катта режа ва мақсадлардан тизимли амалий ҳаракатларга ўтиш бошлан-моқда.

Аслида коррупцияга қарши курашни яқка идора ёки алоҳида чора-тадбир-лар доирасида ҳал этиб бўлмайди. Лекин, афсуски, мамлакатимизда коррупцияга қарши курашишда яхлит ва узвий тизимни тўлиқ шаклланти-ра олмаганмиз. Ҳар бир ташкилот ўз имкониятлари, мавжуд куч ва воситаларидан келиб чиққан ҳолда, алоҳида режалар асосида ҳаракат қилмоқда. Бу эса умумий мақсад йўлида сазй-ҳаракатларнинг тарқоқ бўлиб қолишига, баъзан такрорланиш ёки самарасизликка олиб келмоқда. Шу нуқтаи назардан, фармонда бел-гиланган коррупцияга қарши курашиш кластерини ташкил этиш вазифаси, аввало, замон талаби сифатида кун тартибига чиқмоқда. Бу кластер – коррупцияга қарши курашувчи махсус идоралар, давлат органлари, илмий муассасалар ҳамда фуқаролик жами-яти институтларининг ҳаракатларини уйғунлаштирувчи, мақсад ва масъу-лиятни бир нуқтага жамладиган тизимдир.

Фармон билан давлат органлари ва ташкилотларида коррупцияга қарши Миллий сертификатлаштириш менеж-мент тизими жорий этилмоқда. Ушбу тизим давлат органлари ва ташкилот-ларида коррупцияга қарши курашиш фаолиятини баҳолаш ва сертифи-катлаш тартибини белгилайди. Ҳар йили ўртача 20 дан ортиқ ташкилот миллий сертификатга эга бўлади. Мазкур сертификат халқаро ISO 37001 стандартининг муқобилига айланади.

Шунингдек, «E-qaror» тизимида қабул қилинадиган ҳужжатларни эълон қилишда очиқликка оид қонунчилик-ка риоя этилишини назорат қилиш ва шаффофликни таъминлаш бўйи-ча таъсирчан чоралар қўлланили-ши белгиланмоқда. Таҳлилларга

кўра, «E-qaror» тизимига 2021–2025 йилларда 24 417 та ҳужжат кири-тилган бўлиб, уларнинг 9 006 таси (37 %) «яширилган», шундан 1911 таси (21 %) эса маблағ ажратиш билан боғлиқ.

Бундан ташқари, давлат органлари ва ташкилотларининг коррупциявий хавф-хатар даражаси юқори бўлган вазифа ва функцияларини рақам-лаштириш бўйича минимал талаблар ишлаб чиқилади. Аниқроқ айтидиган бўлсак, бугунги кунда анъанавий шаклда кўрсатилаётган 300 дан ортиқ хизматларни рақамлаштириш бўйича талаблар ишлаб чиқилади. Шунинг-дек, халқаро молия ташкилотлари маблағлари ҳисобидан молиялашти-риладиган лойиҳаларни амалга оши-риш жараёнлари рақамлаштирилиб, коррупция омилларини бартараф этиш чоралари кўрилади. Бу орқали ўтказиладиган тендерларда бир йилда 40 тоннадан ортиқ қоғоз иқтисод қили-нади, харид учун сарфланаётган вақт эса 4 ойдан 1 ойгача камаёди, тад-биркорлик субъектлари иштироки кен-гайиб, бошланғич нарх 10–15 фоизга арзонлашишига эришилади.

– Барча соҳаларда амалга оши-рилаётган рақамлаштиришни кенг жорий этиш ишлари хусусида ҳам тўхталиб ўтсангиз.

– Бугун рақамлаштириш жараён-лари барча соҳаларда ҳал қилувчи аҳамият касб этаётган бир пайтда коррупция хавф-хатарларини рақам-ли технологиялар орқали аниқлаш ва таҳлил қилиш, сунъий интеллект имкониятларини соҳага кенг жорий этиш ишлари талаб даражасида эмаслигини очиқ тан олиш керак. Бу ҳолат давлат хизматчилари, хусусий сектор ва аҳоли ўртасида юзага ке-лаётган коррупцион ҳолатлар ҳамда тизимли муаммоларни ўз вақтида аниқлаш ва бартараф этишга қара-тилган чора-тадбирларни белгилашда қийинчиликлар туғдирмоқда.

Масалан, шу пайтга қадар Агент-лигимизда АКТ бўйича алоҳида ту-зилма мавжуд бўлмаган. Вазирлик ва идораларнинг ахборот базаларидан самарали фойдаланиш, улар ўртаси-да интеграцияни таъминлаш орқали коррупция хавф-хатарларини масо-фадан туриб аниқлаш, таҳлил қилиш ва олдини олиш имкониятлари ҳали тўлиқ ишга солинмаган эди. Натижада коррупция хавф-хатарларини таҳлил қилиш амалиётини асосан жойлар-га чиқиб ўрганиш, маълумотларни алоҳида ташкилотлардан сўраб олиш, йиғиш ишлари эски усуллар асосида олиб борилмоқда. Бу эса вақт, ресурс ва инсон омилига ортиқча боғлиқлик-ни келтириб чиқармоқда.

Тахминан 2 минг нафар давлат хиз-матчисининг тадбиркорлик фаолияти



билан шуғулланиши ҳолатини текши-риш учун солиқ, бандлик ва молия органларидан маълумот сўраб олиш, уларни ўзаро солиштириш ва таҳлил қилиш бир нафар ходимдан ўртача 5–6 кун вақт талаб этмоқда. Агар ушбу жараён рақамлаштирилиб, маълумот базалари ўртасида тўлиқ интеграция таъминланса ҳамда текширув авто-матлаштирилса, айна вазифани 1 соат ичида бажариш мумкин. Шу мақсад-да Агентлик ҳузурида Хавф-таҳлил маркази ташкил этилмоқда. Мазкур марказ давлат органларининг 30 дан ортиқ – адлия, солиқ, ички ишлар, бандлик, суд ва бошқа идоралар маъ-лумот базаларига интеграция қилин-ган ҳолда, коррупция хавф-хатарлари-ни сунъий интеллект ёрдамида таҳлил қилиш имконини берувчи замонавий тизимни яратишни назарда тутди.

Хусусан, Марказда коррупция хавф-хатарларини аниқлаш ва баҳо-лашга қаратилган дастурий маҳсулот-лар ишлаб чиқилади. Давлат харид-лари, манфаатлар тўқнашуви, давлат органлари фаолиятининг очиқлиги, ноқонуний бойлик орттириш билан боғлиқ қонун бузилиши ҳолатларини барвақт аниқлаш тизимлари жорий этилади. Бу эса коррупцияга қарши курашда жазога йўналтирилган эмас, балки олдини олишга қаратилган пре-вентив механизмларни кучайтириш, асослантирилган ва аниқ тақлифлар ишлаб чиқиш учун мустаҳкам замин яратади.

Сунъий интеллект асосида давлат харидлари соҳасида қонун бузилиши ҳолатларини барвақт аниқлаш ва ол-дини олиш имконини берувчи элект-рон тизим яратилади. Ушбу тизим орқали шубҳали тендерлар, сунъий рақобат ва манфаатдорлик аломат-лари автоматик тарзда аниқланади.

Манфаатлар тўқнашуви билан боғ-лиқ ҳолатларни аниқлаш ва онлайн мониторинг қилиш имконини берувчи электрон платформа орқали давлат хизматчиларининг қарор қабул қилиш жараёнидаги хатарлар реал вақт ре-жимда кузатиб борилади.

Шу билан бирга, рақамли назорат механизмларини жорий этиш орқали муқаддам коррупция жинояти учун судланган шахсларнинг қайтадан дав-лат хизматида қабул қилиниши қатъий чекланади. Инсон омили таъсирини камайтириш орқали бу борадаги қарорлар шаффоф ва холис қабул қилиниши таъминланади.

– Жамиятнинг барча жабҳалари-да «ҳалоллик вакцинаси» билан эм-ланаётган янги авлодни тарбиялаш учун нималарга эътибор қаратиш лозим?

– Замонавий фикрлайдиган, ин-новацияга очиқ ва адолатсизликка мутлақо мурасиз ёш авлод бугун коррупцияга қарши курашда жами-ятнинг энг ишончли таянчи ва етакчи кучи бўлиб майдонга чиқяпти. Ёшлар-нинг фаоллиги, ҳалолликка интилиши ва масъулиятни ўз зиммасига олишга тайёрлиги – аслида бутун жамиятнинг эртанги қиёфасини белгилайди.

Ёшларнинг инновацион ёндашуви, муаммоларга рақамли, тизимли ва аниқ ечим топишга интилиши ҳозирги замонда коррупцияга қарши курашда беқиёс аҳамиятга эга. Шу боис улар-нинг, энг аввало, таълим-тарбиясига эътиборни кучайтириш энг тўғри ва стратегик қадам, деб ҳисоблайман. Бу борада Агентлигимиз томонидан аллақачон аниқ ва амалий ишлар бошлаб юборилган, натижалар эса ўз сўзини айтяпти. Хусусан, Кор-рупцияга қарши курашиш виртуал академияси электрон платформаси орқали кенг кўламли ўқув жараёнлари ташкил этилди. Натижада 1 миллион 67 минг нафар МТТ тарбияланувчиси, 3 миллион 146 минг нафар ўқувчи ва 62 минг 275 нафар талаба базавий ўқув курсларида билим ва кўникма-ларини оширди. Бу рақамлар ёшлар онгида ҳалоллик ва мурасизлиқни шакллантириш йўлида тизимли иш олиб борилаётганини кўрсатади.

– Коррупцияга қарши кура-шишда жамоатчилиқнинг ўрни қай даражада муҳим деб ўйлайсиз?

– Коррупцияга қарши курашишда жамиятнинг ўзи фаол иштирокчига айланмаса, ҳеч қандай ислохот ку-тилган самарани бермайди. Чунки коррупцияни фақат қонунлар ёки жазолар билан енгиб бўлмайди. Уни жиловлайдиган энг кучли омил – бу жамоатчилик назорати, фуқаролар-нинг ҳуқуқий онги ва адолатга бўлган ички талабидир. Агар жамият корруп-цияга нисбатан ўз муносабатини очиқ ва қатъий билдирса, бу фақат давлат сиёсатини эмас, балки бутун ижтимо-ий муҳитни ўзгартиради. Коррупция «оддий ҳолат» эмас, қабул қилиб бўл-майдиган иллат эканини жамиятнинг ўзи белгилаб бериши керак.

Қувонарлиси, бугун жамиятимизда ана шундай ўзгаришларга интилиш тобора яққолроқ кўзга ташланяпти. Одамлар очиқ мулоқотга, назорат қилишга, савол беришга кўпроқ тай-ёр бўляпти. Адолатсиз амалиётларга нисбатан мурасизлик аста-секин ижтимоий меъёрга айланыпти.

Энг муҳими, оммавий ахборот воси-талари жамият номидан гапиряпти. Улар берган ҳар бир материал – бу фақат хабар эмас, балки жамоат-чиликнинг талабидир. Шу маънода, эркин, принципаал ва фаол журналис-тика коррупцияга қарши курашишда давлат идоралари учун ҳам, жамият учун ҳам энг ишончли ҳамкор бўлиб қолмоқда.

Бир сўз билан айтганда, коррупция-га кўз юмиб яшаш осон, лекин уни рад этиб яшаш – бу танлов, масъулият ва фуқаролик позициясидир. Бугун шу танлов эгалари сони ортиб бораётга-ни – энг муҳим ютуқ.

Суҳбатдош
подполковник Азизжон
ФАЙЗИЕВ.



Ko'rik-tanlov

VODIYDAGI GO'ZAL BAHSLAR

Ko'hna va hamisha navqiron Qo'qon shahri uch kun davomida ichki ishlar organlari tizimidagi nufuzli tadbirlarga mezbonlik qildi.

IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti tarkibida xizmat qilayotgan shahodatlangan xodimalar o'rtasida joriy etilgan «Fidoyi ayol xodima», «Eng yaxshi kitobxon xodima» ko'rik-tanlovlari hamda «Zakovat» intellektual o'yinlari yuqori saviyada tashkil etildi.

Dastlabki kuni tanlov ishtirokchilari Qo'qon shahri vokzalida tantanali tarzda kutib olindi.

Ikkinchi kuni tanlov jarayonlari uchta maskanda bir paytda boshlandi. Qo'qon universiteti binosida bo'lib o'tgan «Zakovat» intellektual o'yini qiziqarli jarayonlar va kutilmagan savollarga boy tarzda o'tdi. Sohaga oid, shuningdek, siyosiy, huquqiy va tarix fanlariga doir savollarga zukko xodimalar tez va aniq javob berishga harakat qilishdi. Yakunda esa eng bilimdonlardan tashkil topgan jamoa, albatta, g'oliblikka erishdi.

Shunday qilib, faxrli birinchi o'rinni Departamentning «Oltin qanot» jamoasi egalladi. Ikkinchi o'rin Departament batalyonlari xodimlaridan tuzilgan «Afrosiyob» jamoasiga, uchinchi o'rin esa Qashqadaryo viloyati TXTBdan kelgan «Nasaf» jamoasiga nasib etdi.

«Fidoyi ayol xodima» ko'rik-tanlovi ham adolat va shaffoflik me-



zonlari asosida o'tkazildi. Yakunda Toshkent mintaqasi XTB xodimasi, kichik serjant Zamira Allaberganova va faxrli birinchi o'rin sohibi sifatida e'tirof etildi. Metropolitan TXB xodimasi, katta serjant Nozimabonu

Husanova ikkinchi, Navoiy viloyati TXTB xodimasi, safdor Dilshoda Bo'ronova uchinchi pog'onani band etdi.

«Eng yaxshi kitobxon xodima» ko'rik-tanlovida esa Navoiy viloyati

TXTB xodimasi, kapitan Dildora Rahmonovaga teng keladigani topilmadi.

– Badiiy kitoblarni juda yaxshi ko'raman, kutubxona eng sevimli maskanimdir, – deydi g'oliba. – Ichki ishlar organlari xodimlari uchun o'qish tavsiya etilgan asarlarni ham batafsil o'qib chiqqanman.

Ko'rik-tanlovlari va «Zakovat» intellektual o'yini g'oliblari Departament rahbariyati tomonidan munosib ravishda taqdirlandi.

Uchinchi kuni tadbir ishtirokchilari viloyatdagi diqqatga sazovor joylar, tarixiy obidalar va muzeylarga sayohat qilib, maroqli hordiq chiqarishdi. Jumladan, Qo'qondagi «Xudoyorxon o'rdasi», «Allomalar muzeyi» hamda Rishton tumanida joylashgan «Shokir mingboshi» uy-muzeyi bilan tanishish jarayonida xodimalarga yurtimizning boy tarixi, madaniy merosi, milliy qadriyatlari, ajdodlarimizdan qolgan an'analar hamda xalq amaliy san'ati namunalari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Tezkor-profilaktik tadbirlar

YARA GAZAK OLMASDAN OLDIN

Qashqadaryo viloyatida giyohvandlikka chek qo'yish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish, mahallalarda osoyishta va xavfsiz hayot muhitini yaratish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirlar davomida giyohvandlik vositalarini saqlash, o'tkazish, sotish bilan bog'liq 10 ta jinoyat aniqlanib, 1200 grammga yaqin giyohvandlik moddalari hujjatlashtirib olindi. Jumladan, g'uzorlik fuqaro D.S. 610 gramm gashish giyohvandlik vositasini uyida saqlab kelayotgani, Dehqonobod tumani hududida Qarshi tumanida yashovchi E.A. esa 321 gramm marixuana giyohvandlik vositasini sotish niyatida olib yurgani ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi 2 ta ov quroli va 64 ta o'q-dorini qonunga xilof ravishda uyda saqlash holatlari ham aniqlandi.

Shuningdek, qo'lbola usulda tayyorlangan alkogol mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish va muomalaga kiritish bilan bog'liq holat ham aniqlanib, 546 ta shisha idish-

dagi mahsulotlar olib qo'yildi. Hozir holat yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilyapti.

Tezkor tadbirlar davomida Qarshi shahrida yashovchi E.M. 2 nafar sherigi bilan o'zaro jinoyi til biriktirib, fuqarolarning o'g'irlangan telefon apparatlarining IMEI kodini pul evaziga o'zgartirish bilan muntazam shug'ullanib kelgan. Jinoyi guruh a'zolari ushlanib, guruh rahbaridan 350 ming so'm pul, uyali telefon apparati hamda kompyuter axborotini modifikatsiyalashda foydalanib kelgan noutbuk ashyoviy dalil sifatida olib qo'yildi.

Xuddi shuningdek, savdo majmuasida telefon apparati savdosi bilan shug'ullanuvchi 17 ta do'konida sotuvga qo'yilgan 1106 ta uyali telefon apparati, planshet va noutbuk tekshirib ko'rish uchun olindi. O'rganishlarda esa 690 ta uyali telefon apparatining tegishli hujjatlari mavjud emasligi oydinlashdi.

Hozirda aniqlangan barcha holatlar bo'yicha jinoyat ishlari qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Jinoyat va jazo

Mastlik – inson ruhiyatini so'zsiz egallaydi. Bunda aql susayadi, his-tuyg'ular ustunlik qiladi. Oddiy so'zlar urush-janjalg, kichik nizo zo'ravonlikka aylanadi. Bu paytda nafaqat qonun buziladi, balki insoniylik ham so'nadi. Mast holatda sodir etilgan jinoyat esa, bu – ruhiy jarohat, kechirilishi qiyin, qalbgacha chuqur o'tiradi.



ICHKILIKNING QABIH YAKUNI

...Soat tungi ikkilarda Yangiariq tumani «Do'stlik» mahallasida yashovchi Qadam Jabborov (ism-shariflar o'zgartirildi) devorga urilib-turtilib uyiga kirib keldi. Ichkilik ta'sirida aqlini yo'qotgan alamzada insondan go'yoki hamma yuz o'g'irgan, bitta u haq, qolganlar jazoga loyiq...

Uy ichida o'g'li va kelini uxlayotgan edi. O'g'il sakrab o'rnidan turdi.

– Yarim kechada nega bizning xonaga keldingiz? Yana ichdingizmi?!

Ota-o'g'il qattiq tortishishdi. Kelin vahima ichida nima qilishni

bilmasdi. Yillar davomida yig'ilib kelgan oilaviy nizo shu tun xuddi pishgan yara kabi yorildi. G'azab otiga mingan ota o'z xonasiga kirib, ov miltig'ini olib chiqdi. Ikki bor o'q ovozi yangradi. Baqir-chaqirdan uyg'onib ketgan nabira xonaga kirib kelganda sovuq qurol yana bir bor otildi...

Sud zalida jimlikni faktlar buzdi. Uch insonning umriga zomin bo'lgan Qadam Jabborov 12 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilindi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Jinoyatga jazo muqarrar

TUN QO'YNIDA UCH «SHOWVOZ»

Forish tumani Shoxusmon qishlog'ida yashaydigan uch yigit bedor. Ular yarim tun va sahar orasini kutishyapti. Shu vaqtda odamlar chuqur uyquga cho'mishini yaxshi bilishadi. Oldindan rejalashtirilgan o'g'rilik ayni shu pallada amalga oshirilishi kerak.

Fursat yetdi. Uchovlon mahalladoshi S.Q.ning qo'rasiga yashirincha kirib bordi. Qorong'i qo'rada qo'ylar bir burchakka qamaldi. Fonar yorug'ida eng semizi tanlanib, mashinaga ortildi. «Nexia» qorong'ilik qo'yniga singib ketdi.

Ertasi kuni qo'ylarga yemish berish uchun chiqqan uy egasi eng bo'limli qo'yi yo'qligini darrov payqadi. Qishloqda devorlar pastak, qo'shnining hovlisiga bemalol o'tib-qaytib yurishadi. Shu sabab ko'ngliga birdan gumon oralamadi. U yoq-bu yoqni qaradi, hamsoylardan so'radi. Tabiiyki, qo'yning daragi chiqmadi. Axiyri, oradan besh kun o'tgach, qo'y yo'qolgani haqida ariza bilan tuman IIBga murojaat qildi.

Olib borilgan tezkor tadbirlar natijasida 3 nafar gumon-



dor qo'lga olindi. Ularning bari shu qishloqda yashovchi yigitlar edi. 2001-yilda tug'ilgan M.B. kirakashlik bilan shug'ullangan. Afsuski, jinoiy sheriklari voyaga yetmagan shaxslar, maktabning 10-sinf o'quvchilari bo'lib chiqdi. 2009-yilda tug'ilgan A.S. va A.R. qilmishining og'ir oqibatlarini to'la anglamay turib shu yo'lga kirgani achinarli.

Boshqa qishloqda yashaydigan dallolga pullangan qo'y hujjatlashtirib olindi va egasiga qaytarildi.

Qarangki, tungi bedorlarning bu qilmishi birinchisi emas ekan. Bir necha hafta muqaddam Uzunbu- loq qishlog'ida yo'qolgan bir bosh qo'y ham ularning o'ljasi bo'lgani aniqlandi. O'sha o'g'rilikda A.S. ishtirok etmagan edi. Ammo u sinfdoshining havoyi gaplariga uchib, qing'ir ishga qo'l urgani noto'g'ri ekanini kech angladi.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

«O'ZINGNIKI O'ZAGINGNI KESADI»

Elmira (ism-shariflar o'zgartirildi) yaxshi niyat bilan to'plagan sarmoyasiga mashina sotib olish maqsadida jiyani Mahbubaga qo'ng'iroq qildi. U Xitoy Xalq Respublikasining Axborot texnologiyalari universitetida tahsil olgan. Hozir ham kiyim-kechak savdosi bilan Xitoyga borib-kelib turganligi uchun narx-navoni bilish maqsadida undan maslahat oldi.

Mahbuba ammasiga Xitoydan arzonga mashina sotib olgani bilan bojxona to'lovlari sabab qimmatga tushishini aytdi. O'sha pul-larga tanishi orqali Xitoyda doktoranturaga (PhD) o'qishni gaplashib berish taklifini bildirdi.

Mahbubaning ukasi Mirjalol ham Xitoyda o'qiyotganligi sababli, Elmira akasi va kelinoyisidan farzandiga har oy qancha pul jo'natayotganligi va boshqa xarajatlar haqida kerakli ma'lumotlarni oldi. Xitoyga borib o'qish ancha arzonligiga ishonch hosil qilgach, Elmira Mahbubaning taklifiga rozi bo'ldi.

Dastlab Mahbuba hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ammasidan 2300 AQSH dollari oldi. Biroz vaqt o'tgach, «Siz oliy ma'lumotli bo'lganinigiz uchun o'qishingiz hal bo'ldi. Faqat yotoqxona uchun yana 2200 AQSH dollari to'lashingiz kerak!» dedi. Ushbu summa to'lanishi bilan barcha hujjatlar Xitoydan kelishini ham ta'kidladi. Elmira yotoqxo-



na narxi juda qimmatligini bildirgandi, jiyani bu to'lov uch yil muddatga o'tishini aytdi.

2024-yil noyabr oyining boshida ammasidan yana «biznes viza» uchun 400 AQSH dollari oldi. Kun sayin hafsalasi pir bo'lib borayotgan Elmira jiyaniga bergan 4900 AQSH dollarini qaytarishni talab qildi. Mahbuba esa «O'qishingiz

hal bo'lib turganida, o'qib kelarvermaysizmi?» deb, uni 2025-yil 19-yanvar kuni soxta hujjatlar bilan XXR Xanjou viloyatiga jo'natdi.

Elmira viza markaziga murojaat qilganida, u Guanchjou shahridagi oliygohga kirganligini, o'sha yerga murojaat qilishini aytishdi. Shu kuni o'z yonida 1200 yuan sarflab samolyotga chipta

oldi. Soat tungi 22:00 da shaharga yetib keldi. Erta saharlab o'qish joylashgan manzilni so'rash maqsadida jiyaniga qo'ng'iroq qilsa, telefonni ko'tarmadi. Oxiri otasiga Telegram orqali aloqaga chiqib vaziyatni tushuntirdi. So'ngra Guanchjoudagi tibbiyot oliygohiga borib, uning hujjatlari topshirilmaganligini bildi.

Mahbuba esa o'zini oqlab, tibbiyot oliygohining yotoqxonasida joy qolmaganligi sababli, birinchi kursni o'sha yerdagi Politehnika ayollar kasb-hunar kollejida o'qishini, tibbiyot oliygohi bilan kollej o'rtasida shartnoma borligini aytib, uni ishon-tirmoqchi bo'ldi. Lekin keyingi hiylasi o'tmadi.

«O'zingniki o'zagingni kesadi» degan naql bejiz aytilmagan. Har bir ishning xotimasi bo'lganidek, Elmira ham na o'qishga kirdi, na mashinalik bo'ldi. Ikki o'rtada qarindoshlik rishtasiga putur yetdi. Noiloj qolgan Elmira holat bo'yicha ichki ishlar organlariga murojaat qildi.

Bu kabi kimsalarning qilmishi jamiyatda o'zaro ishonch yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Aynan shu ishonchdan foydalanib, shaxsiy manfaatni ko'zlab, boshqalarning mehnati va mablag'ini o'marish, jinoiy javobgarlikka olib keladi. Mahbuba ham qonun oldida javob berdi. Unga nisbatan tegishli jazo tayinlandi.

Behruz TOJIYEV,
katta leytenant.
Go'zal JAFAROVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Саломатлик сабоқлари

ГАЙМОРИТ ОРТИДАГИ ХАВФ

Тиббиёт муассасаларига совуқ фаслларда беморларнинг учдан бири бурун бўшлиғи муаммолари бўйича мурожаат қилишади. Уй шароитида даволанаётганларнинг ҳам 15–16 фоизи айнан шу хасталикларга чалинган бўлишади. Ушбу касалликлар ичида гайморит етакчи ўринни эгаллайди.

Гайморит – бурун ёни ҳамда юқори жағ бўшлиқлари шиллиқ қава-тининг яллиғланиши билан кечадиган, кенг тарқалган касаллик. У кўп ҳолларда бурун ёни бўшлиқларида йиринг йиғилиши тарзида намоён бўлади. Кечишига қараб, гайморит ўткир ва сурункали турларга бўли-нади.

Мазкур касаллик боғча ёшидаги болаларда де-ярли кузатилмайди, чунки гаймор бўшлиқлари фақат 7–8 ёшларда шаклланади. Бу хасталик, асосан, ўсмирлар ҳамда 30–50 ёш атрофидаги ин-сонлар орасида кенг тарқалган.

Касаллик кўпинча узоқ давом этган ту-мов, такрорий бурун оқиши ва совуқ қотиш-дан сўнг ривожлана-ди. Грипп вируслари, шунингдек, кўк йиринг таёқчалари касаллик кўзгатувчилари ҳисоб-ланади. Бундан ташқари, аллергия ҳолатлар, юқори жағ тишлари касалликла-ри, ринит, бурун бўшлиғи-нинг анатомик хусуси-ятлари, иммунитетнинг пасайиши, аденоидлар ёки полиплар, сил, неоплаз-

малар ҳамда сурункали инфекциялар – фарингит ва тонзиллит каби омил-лар ҳам гайморитга сабаб бўлиши мумкин.

Гайморит билан оғри-ган беморларда пешо-на, кўз атрофи, бурун ён томонлари ва юқори жағ соҳасида кучли оғриқ пайдо бўлади. Айниқса, эгилиш пайтида оғриқ янада кучаяди. Шунинг-дек, бурундан нафас олиш қийинлашади, ял-лиғланган соҳада шиш кузатилади, ҳид сезиш

ланади. Ўткир гайморитни ўз вақтида даволамаслик кўп ҳолларда унинг сурун-кали шаклга ўтишига олиб келади.

Даволаш усуллари консерватив ва жарроҳ-лик турларига бўлинади. Ўткир гайморитлар, одат-да, антибиотиклар, бу-рунни махсус усул билан ювиш орқали даволанади. Агар касаллик кўз ёки мияга асорат берса, жар-роҳлик аралашуви талаб этилади. Сурункали гай-моритнинг айрим турлари




мумкин. Масалан, иссиқ компресслар қўйиш, тухум ёки картошка билан енгил иситиш, шифобахш ўсимликлар буғи билан нафас олиш шулар жум-ласидандир. Шу билан бирга, яллиғланишга қарши ва томирлар-ни торайтирувчи дори воситаларини шифо-кор тавсияси асосида қўллаш лозим.

Гайморитнинг олди-ни олиш учун соғлом турмуш тарзига амал қилиш, организмни чиниқтириш, жисмоний фаол бўлиш муҳим. Совуқ қотишдан сақланиш, бурун орқали нафас олишдаги муаммоларни ўз вақтида бартараф этиш, тиш ши-фокори кўригидан мун-тазам ўтиб туриш, совуқ

ҳавода бош кийимсиз юр-маслик ҳам касаллик хав-фини камайтиради.

Энг муҳими, оддий ту-мов узоқ давом этса, унга бепарво бўлмаслик керак. Чунки вақтида даволанма-ган тумов гайморит ривож-ланишига замин яратади. Шу боис, қиш фаслида совуқ сув истеъмол қил-маслик, намгарчилик кун-лари нафақат оёқни, балки бошни ҳам иссиқ тутиш соғлиқни сақлашда муҳим аҳамиятга эга.

Шухрат ҚУРБОНОВ,
ИИБ Марказий
поликлиникаси
жарроҳлик бўлини маси
шифокор-
оториноларингологи.
Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз мухбиримиз.



Абу Али ибн Синодан сўрадилар:
– Дунёда давоси бўлмаган бирон дард борми?
– Яхшининг ёмонга муҳтож бўлиши – давосиз дарддир.

пасаяди, уйқу бузилади. Кечаси ва эрталаб кучая-диган қуруқ йўтал, бурун-дан йирингли ажралма оқиш, доимий бош оғриғи ҳамда тана ҳароратининг кўтарилиши касалликнинг асосий белгилари ҳисоб-

консерватив, қолганлари эса эндоскопик микро-операциялар воситасида даволанади.

Касаллик энди бошла-наётган даврда уй шаро-итидаги айрим муолажа-лар ҳам фойда бериши

ЧАНҚОҚНИ ҚОНДИРУВЧИ НЕЪМАТ

Апельсин танага куч-қувват бахш этиб, кайфиятни яхши-лайди. У мавсумий шамоллаш, вирусли касалликлар даврида саломатликни сақлаш учун яхши ёрдамчи. Ушбу цитрус мева иммунитетни мустаҳкамлайди, оғиз бўшлиғи тўқималари ва милкни яллиғланишдан ҳимоя қилади. Шунингдек, омега-3 ва 6, ёғ кислоталари, рух, йод, калий, кальций, фосфор, те-мир моддаларига бой. Апель-син моддалар алмашинуви-ни тезлаштириб, эркин радикал-лар ҳаракатини нейтраллайди, юрак-қон томир касалликлари ривожланишига тўсқинлик қила-ди. Таркибида В гуруҳи, А, С, Е, Н, РР витаминлари бўлган ушбу мева холестерин даражасини камайтириб, буйрак фаоли-ятини яхшилайди. Шу билан бирга ошқозон шиллиқ қавати зарарланишининг олдини олиб,



ичаклар фаолиятини рағбатлан-тиради.

Мева кесилган ҳолатда ёки турли ширинликлар таркибида истеъмол қилинади. Апельсин чанқоқни қондирувчи ва очлик ҳиссини йўқотувчи хуштаъм неъматдир. Унинг шарбати ор-

ганизм учун жуда фойдали бў-либ, танани тетиклаштиради, куч бахш этади. Бу ичимликни кўпгина давлатларда нонушта пайтида ичиш урф бўлган. Чунки у иштаҳани очади, иммунитетни мустаҳкамлайди, инфекциялар билан курашишга ёрдам бера-

ди. Апельсин шарбати терини ёшартиради, қон таркибини яхшилайди, ичакларни тозалай-ди шунингдек, оғриқ қолдириш хусусиятига эга.

Бироқ ушбу мева аллергия маҳсулот ҳисобланиб, унга таъ-сирчан кишилар истеъмолда эҳтиёт бўлгани маъқул. Шу-нингдек, ошқозон-ичак трак-ти ва ичак касалликлари бе-зовта қиладиган беморларга бу борада мутахассис билан маслаҳатлашиш тавсия этилади. Апельсинда кислоталилик юқори бўлгани боис тиш эмалига зарар етказиши мумкин, шунинг учун унинг меъёрини оширмаслик ва истеъмолдан сўнг оғизни чайиб ташлаш зарур.

Дилфуза БАҲРАНОВА,
Тошкент шаҳар ИИББ
Тиббиёт бўлими
поликлиникаси
шифокор-терапевти.



Sportni sev, sport bilan yasha!

VAKILIMIZ – MUTLAQ G'OLIB

Bolaligi Qarshi tumanida o'tgan Anzor qishloq to'ylarida o'tkazilgan kurash bellashuvlarida faol qatnashib, sportga bo'lgan qiziqishi kuchaya bordi. Bu qiziqish Qarshi shahridagi Nuriston akademik litseyida o'qib yurgan kezlarda uni dzyudo to'garagiga yetakladi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, murabbiylari e'tiboriga tushgan Anzor qator musobaqalarda faxrli o'rinlarni egalladi.



Chirchiq shahrida, harbiy havo desanti harbiy qismida yigitlik burchini o'tagan lavhamiz qahramoni harbiylar o'rtasidagi musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Ayni harbiy xizmat unda Vatanga xizmat qilish istagini paydo qildi. Shu bois viloyat IIBga hujjatlarini topshirib, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi.

Tizimdagi ilk xizmat faoliyatini 2014-yilda Qarshi tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limida boshlagan Anzor Qo'ziyev soha sirlarini puxta o'zlashtirdi. Xizmat bilan birga, sportni

ham kanda qilmadi. Ikki yildan so'ng viloyat IIB TVBSOga xizmatga o'tgach, sportdagi mahoratini yanada oshirdi. Intizomliligi, berilgan topshiriqlarni vaqtida bajarishi, o'z ustida muntazam ishlashi bilan hurmat-e'tibor qozondi.

Tizimda o'tkazilgan sambo, jangovar sambo, qo'l jangi, milliy kurash bo'yicha musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Qator xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tardi.

Katta serjant Anzor Qo'ziyev shundan keyin

murabbiylari – katta serjantlar Ramziddin Berdiyev va Dilshod Rahmonov qo'l ostida yangi sport turi – sumo bilan jiddiy shug'ullandi. Natijada bu sohada ham g'oliblikni qo'lga kiritdi. Aniqrog'i, yaqinda Chirchiq shahrida bo'lib o'tgan sumo bo'yicha yoshlar va kattalar o'rtasida mamlakat chempionatida 100 kg vazn toifasida mutlaq g'olib deb topildi. Unga chempionlik medali bilan birga, joriy yil oktabr oyida Ozarbayjonda bo'lib o'tadigan 27-jahon chempionati yo'llanmasi ham topshirildi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro toifadagi sport ustasi Anzor Qo'ziyev ushbu g'alabasi bilan sumo bo'yicha respublika ichki ishlar organlarida va viloyatda birinchi bo'lib chempionlikni qo'lga kiritgan xodimga aylandi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



MAHORAT SINOV

Yaqinda IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti hududiy bo'linmalari va sohaviy xizmatlari xodimlari o'rtasida stol tennisi bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

Musobaqaning birinchi bosqichi joriy yilning 15-yanvaridan 25-yanvariga qadar o'tkazilib, mintaqaviy bosqichida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan xodimlar yakuniy bosqichda Departament sport majmuasida o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazishdi.

Qizg'in va murosasiz bellashuvlarga boy tarzda kechgan musobaqaning yakka bahslarida Beshinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi katta inspektori, mayor Tolib Sharipov raqiblaridan yaqqol ustun ekanligini namoyish etib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi. Shuningdek, 4-son JIEK bosh muhandisi, mayor Obidjon Esonov ikkinchi, 11-son JIEK xodimi, safdor Dilshod Aslonov uchinchi o'rinni egalladi.

Juftlik bahslarida boshqalardan qo'li baland kelgan Beshinchi mintaqaviy hudud jamoasiga birinchi o'rin nasib etdi. Birinchi mintaqaviy hudud va Departament markaziy apparati terma jamoalari esa ikkinchi va uchinchi o'rinlarga munosib ko'rildi.

G'olib va sovrindorlar kubog, medallar hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Sadridin XAYRULLAYEV,
katta leytenant.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(16 – 22 февраль)

Кўй (21.03 – 20.04). Ҳафта боши омад-



ли келади. Бунда сиздан фаол ва серғайрат бўлиш талаб этилади. Ушбу давр ўрталарида меъёридан ортиқ ташаббус билдириш тавсия этилмайди. Ҳар нарсага некбинлик руҳи билан қараб, ҳаётдан завқ олишни унутманг.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Айни дам келгуси ҳаёт пойдеворини мустаҳкамлаш учун қулай давр. Тақдир сизга яшил чироқни кўрсатмоқда, имкониятни қўлдан бой берманг. Бироқ янги лойиҳани амалга ошириш ёки бирон таклифни қабул қилишдан олдин чуқур мулоҳаза юритинг.



Эгизаклар (21.05 – 21.06). Ҳафтани кўтаринки кайфият билан бошлайсиз. Агар ҳаётда ўз жуфтингизни топмаган бўлсангиз, бу даврдаги янги танишувлардан эҳтиёт бўлинг. Жума ва шанба кунлари бироз беҳаловатлик ва югур-югурлар кузатилади.



Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Катта тажрибага эга одамларнинг маслаҳатига жиддий эътибор қаратинг. Ҳафта давомида барча ишларни тўғри тақсимлашга ҳаракат қилинг. Яқинларингиздан бири сизга панд бериб қўйиши мумкин. Бу борада ўз нуқтаи назарингизни ҳимоя қилишдан чўчиманг. Дам олиш кунлари ҳушёр ва кузатувчан бўлиш талаб этилади.



Арслон (23.07 – 23.08). Сиз учун ҳафта



жуда омадли кечади. Ишдаги асосий эътиборни хато-камчиликка йўл қўймасликка қаратинг. Ушбу ҳафтада молиявий масалаларда қийинчилик сезмайсиз.

Паризод (24.08 – 23.09). Хизмат жойи-



даги вазият кескин тус олиб, ҳафта бироз оғир кечади. Сиз билан рақобат қиладиганлар асабларингизни қитиқлаб кўриши мумкин. Бироқ ҳафтанинг иккинчи ярмида барча муаммолар ўз-ўзидан ҳал бўлиб, сиз завқ ва ғайрат билан ўз юмушларингизга киришасиз.

Тарози (24.09 – 23.10). Иш ва биз-



несда катта ютуқларга эришиш, фойдали ва қизиқарли шахслар билан танишиш имконияти юқори бўлган давр. Бу ҳафта режадаги ишларни амалга ошириш, атрофдагилар билан муносабатларни мустаҳкамлаш учун қулай палла. Молиявий масалаларда ҳам қийинчиликка дуч келмайсиз.

Чаён (24.10 – 22.11). Омад кўп жиҳатдан



ишдаги фаоллик ва ташаббускорликка боғлиқ. Шунинг учун дадил ва олға ҳаракат қилинг. Хато қилишдан қўрқманг, «ҳаракатда – баракат» нақлига амал қилинг, чунки баъзан таваккалчилик ҳам катта муваффақият олиб келиши мумкин. Ушбу давр ҳам ишда, ҳам оилада ўзингизни кўрсатиш учун яхши давр.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Ичи қора ин-



сонларнинг ҳийла-найрангидан эҳтиёт бўлинг. Ҳафта бошида бошлигингиз ҳақида фикр билдиришдан тийилинг, ишга кечикмасликка, бирон вазифани бажаришда хатога йўл қўймасликка ҳаракат қилинг. Пайшанба ва жума куни дўстлар билан учрашув руҳий ҳолатингизни яхшилашга ёрдам беради.

Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Анчадан



бери олишга умид қилган пул маблағи бу ҳафта қўлингизга келиб тушади. Уларни оқилона сарфлашга ҳаракат қилинг. Эҳтимол, аввалдан режалаштирилмаган сафарга чиқишингиз мумкин. Айниқса, гап дам олиш ҳақида кетаётган бўлса, ҳеч иккиланмай розилик билдиринг.

Қовға (21.01 – 19.02). Душанба куни



истиқболли таклиф олишингиз, сешанбада эса эски танишингиз билан кутилмаган учрашув кузатилиши мумкин. Ҳафта ўрталарида бирон бир молиявий ўйинда иштирок этишни таклиф қилганларга ишонманг.

Балиқ (20.02 – 20.03). Душанба ва се-



шанба шахсий ҳаётга эътибор қаратиш учун қулай палла. Кейинги кунлар одатдагидек бир хилда ва зерикарли ўтиши, на яхши, на ёмон хабар улашмаслиги кутилмоқда. Ҳафта сўнгги оғир келади, бу жабҳада меъёрдан ортиқ куч-ғайрат сарфламасликка урининг.

Uchinchi Renessans

ZAFAR, OMAD ILM
BILAN BO'LGAYDIR

Abdumannon Zoirov 2012-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Oilasida ichki ishlar organlari tizimida xizmat qiladiganlar bo'lmasa-da, u bolaligidan teleekranda namoyish etilgan filmlar orqali shu soha vakillariga havas bilan ulg'aydi. Buni otasi payqagan ekan, shekilli.

Shuning uchun boshlang'ich ta'limni Sergeli tumanidagi 330-maktabda olgach, o'g'liga o'qishini IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida davom ettirishni taklif qildi. Bundan Abdumannon quvonib ketdi. Shu bilan birga, mazkur ta'lim muassasasiga kirish oson emasligini anglab, astoydil tayyorgarlik ko'ra boshladi. Tinmay o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali orzusi yo'lida qat'iyat bilan qadam tashladi.

— 5-sinfdan o'qishimni mazkur maktab-internatda davom ettirdim, — deydi Abdumannon. — Boshida bu yerga o'qishga qabul qilinganimdan juda xursand bo'lgandim. Ammo vaqt o'tib, boshqa tengdoshlarim singari darsdan keyin uyimga, ota-onam bag'riga qaytolmasligimni, istagan paytim to'p tepib yoki boshqa o'yinlar bilan mashg'ul bo'lolmasligimni to'liq anglamagan ekan-

man. Shu sababli ko'nikish men uchun ancha qiyin kechdi. Hatto ba'zan otam meni yaxshi ko'rmaydi, ataylab shu yerda o'qishimni istagan, degan xayollarga borib, ich-ichimdan o'ksigan paytlarim ham bo'lgan. Lekin vaqt o'tishi bilan angladimki, otamning bu qarorlari mening yaxshi inson bo'lib ulg'ayishim, maqsadlarimga tezroq yetishim va tanlagan yo'nalishim bo'yicha yetuk kadrlar safidan o'rin olishim uchun qilingan ekan. Shuni tushunganimdan keyin otamdan minnatdor bo'ldim.

Abdumannon bugungi kunda o'qish bilan birga sport sohasida ham yaxshi natijalarga erishmoqda. Xususan, milliy kurash bo'yicha turli darajadagi musobaqalarda muntazam ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritaypti. Shuningdek, ingliz tilini ham qunt bilan o'rganmoqda. Yaqinda CEFR imtihoni topshirib, o'z bilim darajasini aniqlab ko'rish niyatida.

— Maktabimizga Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov tashrif buyurdilar, — deydi Abdumannon. — Ularni ko'rganimda juda

hayajonlandim, hatto so'zlarimni yo'qotib qo'ydim. Vazir o'qishlarim haqida so'radilar, erishgan yutuqlarim bilan qiziqdilar. Bu uchrashuv men uchun katta mas'uliyat yukladi. O'sha lahzalarda kelajakda yaxshi kadr bo'lib, ichki ishlar organlari tizimida fidoyi mutaxassislar safidan o'rin olaman, Vatanim va yurtim tinchligi yo'lida sidqidildan xizmat qilaman deb o'zimga va'da berdim. Endi va'damning ustidan chiqish, vazirimiz, ota-onam, ustozlarim va yaqinlarimning ishonchini oqlash — mening burchim.

Abdumannon bilan suhbatlashar ekanman, uning fikrlari teran, dunyoqarashi keng ekanligiga amin bo'ldim. Suhbatimiz hali-beri tugaydiganga o'xshamasdi. Orzulari yo'lida dadil qadam tashlayotgan, maqsadlariga sadoqatli bu o'smiringa havas qildim. Shu asnoda quyidagi misralar ko'nglimdan kechdi:

*Ketsin dono, komilliging ovozasi,
Qo'l cho'zsang, ochilsin ilm darvozasi.
So'rasinlar, qayerda, deb maktabi,
Ustozlari faxr aylasin maqtanib.*

*Yaxshi farzand rahmat olib kelgaydir,
Zafar, omad ilm bilan bo'lgaydir.
Topmasinlar ilmi senday boyrog'ini,
Baland ko'tar O'zbekiston bayrog'ini!*

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Gazetamizning
elektron variantini
ushbu QR-kod
orqali o'qishingiz
mumkin.

“
Хар бир инсоннинг қадр-қиммати ўз ишини қойиб қилиб бажаришида.
”

Абу Райхон Беруний

“
Китобдек ақли ва содиқ дўст йўқ.
”

Алишер Навоий

“
Ҳаётда муваффақиятга эришиш учун уч нарса керак: Диққат, интизом ва ҳаракат.
”

Жалолiddин Румий

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Gulnoza TURG'UNBOYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 358.
Bosilish — ofset usulida.
Bichimi — A3.
Hajmi — 6 bosma taboq.
50100 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda — 180.
Tashkilotlar uchun — 366.
Bosishga topshirish vaqti — 22.00.
Bosishga topshirildi — 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.